2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 195 (1794), 2026-yil 20-sentabr, yakshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

OROLBO‘YINING YANGI IQTISODIY XARITASI: INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIK, “YASHIL” ENERGETIKA, SANOAT RIVOJI VA YUQORI DAROMAD

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 18-19-sentabr kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasida bo‘ldi.





Mamlakatimiz yetakchisi ikki kunlik safari davomida sanoat, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, tibbiyot, transport, turizm va sport sohalaridagi loyihalar, aholi bandligini ta’minlash va mahallalarni obodonlashtirish borasidagi ishlar bilan tanishdi. Shuningdek, bir qator yangi loyihalarni ishga tushirish va qurilishiga start berdi.

Davlatimiz rahbari 19-sentabr kuni Nukus shahrida Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi.

Qoraqalpog‘istondagi keng ko‘lamli, aniq maqsadli islohotlar samarasi odamlar hayotidagi o‘zgarishlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu yangi O‘zbekistonda inson qadri va manfaati har narsadan ustun qo‘yilgan siyosat mevasidir. Binobarin, keyingi o‘n yilda qilingan ezgu ishlar xalqimizni yangi yutuqlarga yetaklayapti, buyuk bunyodkorlik ishlariga ruhlantiryapti. Ta’bir joiz bo‘lsa, o‘tayotgan har bir kunimiz mamlakatimizning yangi tarixiga unutilmas voqealarga boy bo‘lib muhrlanmoqda.

Xususan, 18-19-sentabr kunlari qoraqalpoq diyori va bag‘rikeng, samimiy, mehnatkash, tanti aholisi hayotida unutilmas voqealar yuz berdi. Gap shundaki, davlatimiz rahbarining Orolbo‘yi hududiga tashrifi doirasida iqtisodiyotni yuksaltirishga xizmat qiladigan qator loyihalarga start berildi. Prezidentimiz sanoat korxonalari faoliyati bilan tanishdi. Yangi ishlab chiqarish quvvatlari, ijtimoiy obyektlarni ishga tushirishga start berdi. Ishbilarmonlar bilan uchrashdi. Nuroniylar, faollar va yoshlar bilan muloqot qildi.

Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlarda Qoraqalpog‘istonni rivojlantirishga yuksak e’tibor qaratilib, aholi va tadbirkorlarga alohida imtiyozlar berilmoqda. Bu kabi qo‘shimcha imkoniyat va yengilliklar tufayli odamlarning hayoti yengillashmoqda, kundalik turmush tarzidagi muammolar yechimini topib bormoqda.

Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda so‘nggi yillarda Qoraqalpog‘iston tubdan yangilangani, buning uchun Orolbo‘yiga katta mablag‘ ajratilgani, imtiyozlar paketi taqdim etilib, sharoitlar yaratilgani alohida e’tirof etildi.

Jumladan, foyda, yer va mol-mulk soliqlari 2 karra, sanoat uchun elektr tarifi 15 foiz pasaytirildi. Ijtimoiy soliq 1 foiz etib belgilandi. Natijada investitsiya muhiti yaxshilanib, sarmoyadorlarning hududga qiziqishi oshmoqda. Birgina o‘tgan yilning o‘zida Qoraqalpog‘istonga 1 milliard 700 million dollarlik investitsiya kiritilgani va bu ko‘rsatkich besh yil oldingiga qaraganda 22 barobar ko‘p ekani so‘zimiz tasdig‘idir. Pirovardida bu yil Qoraqalpog‘iston iqtisodiyoti eng tez o‘sayotgan hududlardan biriga aylandi. Joriy yilning birinchi yarmida hudud iqtisodiyoti 10,2 foiz o‘sib, Toshkent shahridan keyin ikkinchi o‘rinni egalladi.

Elektr energiyasi — iqtisodiyotni harakatlantiruvchi muhim manba. Mazkur yo‘nalishda nechog‘liq qulay sharoit yaratilsa, investitsiya oqimi ham shunchalik ko‘payadi. Odamlar hayoti yaxshilanib, farovonlik ortadi. Shu jihatdan so‘nggi yillarda Qoraqalpog‘istonda 860 megavattli yangi energetika quvvatlari ishga tushirilgani ham diqqatga sazovor. Misol uchun, Beruniy va Qorao‘zakda shamol stansiyalari qurilishi hisobiga “yashil” energiya ulushi 23 foizga yetkazildi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish 4 karra oshib, 5 milliard 330 million kilovatt-soatni tashkil etdi. Bu aholi va korxonalarning yillik talabidan qariyb 3 barobar ko‘p.

Bundan tashqari, 2030-yilgacha jami quvvati 3300 megavattli shamol stansiyalari ishga tushirilib, “yashil” energiya ulushi 76 foizga yetkaziladi, 400 megavattli energiya saqlash quvvati yaratiladi. Qisqasi, yaqin kelajakda Qoraqalpog‘iston “yashil” energiya ishlab chiqarish bo‘yicha mintaqaning eng yirik markazlaridan biriga aylanadi. Hududda tabiiy imkoniyat — kengliklar yetarli. G‘oya, tashabbus, ishbilarmonlik, e’tibor va qo‘llab-quvvatlov ana shu imkoniyatni yuzaga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi. Muhimi, bu yerda ushbu asoslarning barchasi mavjud.

Yig‘ilishda aholining turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qiluvchi loyihalar Qoraqalpog‘istonning har bir tumanida amalga oshirilayotgani ta’kidlandi. Jumladan, Bo‘zatovda zamonaviy sanatoriy, Nukusda onkologiya va radiologiya markazi, Qo‘ng‘irotda bolalar shifoxonasi va tug‘uruqxona ishga tushirildi. Amudaryo va To‘rtko‘lda har biri 2000 o‘rinli amfiteatr, Nukus shahrida gimnastika markazi va konservatoriya filiali foydalanishga topshirildi.

Osiyo taraqqiyot banki bilan sheriklikda 384 million dollar hisobiga A-380 magistralining Qo‘ng‘irotdan o‘tgan 240 kilometri to‘liq beton qoplamaga o‘tkazildi. To‘rtko‘l, Ellikqal’a va Beruniydan o‘tgan yana 92 kilometrini yotqizish ishlari boshlandi. Mazkur loyiha tufayli tranzit 1,5 barobar oshadi. To‘rtko‘lga kirgan yuklar Qozog‘iston chegarasiga 10 soatda yetib boradi. Hozir ushbu muddat bir sutkani tashkil etadi.

Kelasi yili mart oyidan Toshkent — Nukus tezyurar poyezdi qatnovga qo‘yilib, safar vaqti 16 soatdan 7 soatga qisqaradi. Bu yo‘lovchilar uchun juda katta qulaylikdir. Shuningdek, Tuyamo‘yin suv tozalash inshootini rekonstruksiya qilish va Qo‘ng‘irotdan Mo‘ynoqqa 100 kilometr ichimlik suv tarmog‘ini tortish ishlari boshlanadi.

Yig‘ilishda yer, qazilma boyliklar, quyosh va shamol, keng yaylovlar Qoraqalpog‘istonning boyliklari ekani, ular asosida “resursdan tayyor mahsulotgacha” bo‘lgan zanjirni qamrab oladigan yangi sanoat va investitsiya xaritasi ishlab chiqilishi qayd etildi. Bundan tashqari, “Qo‘ng‘irot — Qorao‘zak — Taxiatosh” yo‘nalishi Qoraqalpog‘istonning “yashil sanoat yo‘lagi” — “intellektual iqtisodiyot uchburchagi”ga aylanadi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt va data-markaz loyihalari uchun tashkil etilgan maxsus zonada 8 milliard dollarlik 6 ta loyiha amalga oshiriladi.

Mutasaddilarga 1-oktabrgacha besh yillik dastur ishlab chiqib, investorlar uchun 1 gigavatt quvvatli barqaror elektr ta’minotini yo‘lga qo‘yish topshirildi. Uch yilda Nukus shahri, Qo‘ng‘irot, Qorao‘zak va Taxiatoshda 1500 yuqori daromadli ish o‘rni ochish, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellekt sohasida yillik eksportni 600 million dollarga yetkazish vazifasi belgilandi.


Qoraqalpog‘iston sharoitida bitta niholni o‘stirib olish oson ish emasligi kundek ravshan. Nafaqat ushbu hududda, balki dunyo bo‘yicha iqlim o‘zgarishi ta’siri sezilib turgan hozirgi sharoitda atrof-muhit, tabiatni asrash masalasi yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Shunday ekan, sohaga yangiliklarni muntazam qo‘llab borish juda muhim.

“Yashil” energiyani “karbon kredit”ga aylantirish Qoraqalpog‘istonga yiliga kamida 50-100 million dollar daromad olib kelishi mumkinligi qayd etildi. Mutasaddilarga bir oyda “karbon kredit” mexanizmini Qoraqalpog‘istonda yo‘lga qo‘yish, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi yirik importyor davlatlar bilan muzokaralar o‘tkazish vazifasi topshirildi. “Karbon kredit” eksportidan tushadigan mablag‘lar infratuzilma uchun ajratilayotgan mablag‘larga qo‘shimcha bo‘ladi va shu yerda qoladi. Muhimi, yirik xorijiy kompaniyalar “o‘rmon karbon krediti” tizimi orqali ekologik vaziyati og‘ir hududlarda daraxt ekishni moliyalashtirish bo‘yicha takliflar bildirmoqda. Shu bois, yil yakunigacha Orolning 50 ming gektar maydonida “o‘rmon karbon krediti” dasturini boshlash vazifasi qo‘yildi.

Davomi 2-betda

YANGI O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHILARI 616 MILLION SO‘MLIK MUKOFOT OLYAPTI

Yangi O‘zbekistonda yangi Qoraqalpog‘istonning o‘qituvchisi bo‘lish ulkan sharaf, so‘z bilan ta’riflab bo‘lmaydigan darajadagi katta baxt. Ochig‘i, bu gaplarimda zarracha mubolag‘a yo‘q. Keyingi yillarda pedagoglarning nufuzi haqiqatan juda yuksaldi. Ilgari biror kasb tanlash haqida gap ketsa, “O‘qituvchi bo‘lasan-da”, degan bepisand qarash bor edi. Hozir “Muallimman”, desangiz, darrov qancha maosh olishingizga qiziqishadi.



Prezidentimizning siyosiy irodasi, o‘qituvchilarga cheksiz hurmati va e’tibori tufayli majburiy mehnatdan butkul qutuldik. Oylik maoshimiz adolatli tizim asosida oshirib borilmoqda. Turli imtiyoz va imkoniyatlar taqdim etilyapti. Bundan tashqari, tanlovlar tashkil qilinib, g‘oliblar munosib taqdirlanmoqda.

Xususan, 19-sentabr kuni “Yil o‘qituvchisi” tanlovi g‘oliblari aniqlandi. Unda Qoraqalpog‘istondan 17 nafar, respublika bo‘yicha esa 208 nafar g‘olib bor. Ularning har biriga bazaviy hisoblash miqdorining 1400 baravari miqdorida — hozirgi hisob-kitoblarga ko‘ra, 616 million so‘m pul mukofoti beriladi. Endi hisoblang: bitta tanlov miqyosida o‘qituvchilar uchun qanchalik katta mablag‘ sarflanyapti! Bu mamlakatimiz yetakchisining o‘qituvchilarga ko‘rsatgan ehtiromi, e’tibori natijasi!

Davomi 2-betda



Qadim “Avesto” zamonlaridan buyon xalqimizning asl mohiyatini, ma’naviy qiyofasini, o‘zligini belgilab kelayotgan mumtoz tushunchalar va tamoyillar bor. “Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal” ham ana shunday milliy qadriyatlarimizdan biriga aylangan tayanch va suyanch tamoyillar sirasiga kiradi.



Ushbu asriy tamoyil, ayniqsa, 2016-yildan keyin, ya’ni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans asoslarini barpo etish yo‘lidagi islohotlar shiddat bilan amalga oshirilayotgan hozirgi davrda yaqqol namoyon bo‘la boshladi.

Bugungi kunda jamiyatimizning kundalik leksikonidan mustahkam joy egallagan “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” tushunchalari yurtimiz taraqqiyotining bugunini belgilab berayotgan va xalqimizning asriy orzu-intilishlarini ifodalaydigan ezgu so‘zlarga, hayotimizning tayanch atamalariga aylandi.

Davomi 3-betda

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 20-sentabr, 195-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

OROLBO‘YINING YANGI IQTISODIY XARITASI: INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIK, “YASHIL” ENERGETIKA, SANOAT RIVOJI VA YUQORI DAROMAD

Boshlanishi 1-betda

Yig‘ilishda, shuningdek, Qoraqalpog‘istonda 30 ming gektarda sho‘rga chidamli oxo‘ri va kechki o‘rik plantatsiyalarini tashkil etish bo‘yicha uch yillik dastur amalga oshirilishi aytildi. Bu tashabbus ham mahalliy aholiga qo‘shimcha daromad keltirishi, bandligini ta’minlashi va hududda yangi bog‘lar paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Kegeylidagi 330 gektar sho‘r yerda barpo etilayotgan sanoatlashgan bog‘ni alohida qayd etdi. Yangi dastur doirasidagi 10 ming gektarda ishlar shu yil boshlanadi. Viloyat hokimlari 500 va 1000 gektardan bog‘ yaratishga mas’ul bo‘ladi. Andijondan yer bo‘yicha mutaxassis va dehqonlar kelib, Kegeylida ishlarni boshlagan.

Kelgusi yil bahordan Nukus tumanida 10 ming gektar yerda qovun yetishtirila boshlaydi. Yil yakunigacha Ispaniya, AQSH, Niderlandiya va Xitoydan qovunning eng yaxshi navlari, urug‘chilik va agrotexnologiya bo‘yicha mutaxassislar olib kelinadi. Salohiyatli investorlar jalb qilinib, shu yerning o‘zida qovunni qayta ishlash va eksport qilish bilan shug‘ullanadigan xolding tashkil etiladi. Nukus tumanidagi texnikum esa qovunchilikka moslashtirilib, laboratoriya va sinov poligoni bilan ta’minlanadi.

Ushbu muassasa nafaqat Qoraqalpog‘iston, balki Xorazm, Jizzax, Qashqadaryo va Sirdaryo dehqonlari uchun ham tajriba almashish bo‘yicha metodika markazi bo‘ladi.

Hozirgacha Qoraqalpog‘iston hududining atigi 20 foizida geologiya ishlari o‘tkazilgan. Kelayotgan yirik investorlarga esa xomashyo zaxiralari bo‘yicha ma’lumotlar yetarlicha berilishi kerak. Shu bois, bir oyda investorlar ko‘targan masalalarni hal qilib, 1000 ish o‘rniga ega oltin qazib olish va qayta ishlash klasterini tashkil etish, kompleks geologiya-qidiruv dasturini ishlab chiqib, konlar zaxirasini qayta baholash topshirildi.

Qolaversa, Qo‘ng‘irotdagi “Borsa kelmas” konidan har yili 1 million tonna texnik tuz qayta ishlanmay sotilmoqda. Bo‘zatovdagi “Quskanatau” konida mirabilitni qayta ishlab, yiliga 45 ming tonna natriy sulfat, astraxanitdan esa magniy sulfat olish mumkin. Germaniya kompaniyasi Beruniydagi kvarsit koniga 30 million dollar kiritib, kristall kremniy ishlab chiqarish va yiliga 25 million dollarlik eksportni yo‘lga qo‘yishni rejalashtirgan. Jahon bozorida bir tonna kristall kremniy 5500 dollar turadi. Kimyo sanoati mutasaddilariga dastlabki 400 million dollarlik rejaga qo‘shimcha 200 million dollarlik loyihalarni amalga oshirish va 5000 ish o‘rni ochish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda tarmoq rahbarlariga Qoraqalpog‘istonda “xomashyo — tayyor mahsulot — eksport” zanjiri asosida loyihalar, ish o‘rinlari va qo‘shilgan qiymat bo‘yicha aniq rejalar belgilash topshirildi. Ayni maqsadda Amudaryo, Beruniy, Taxtako‘pir, Kegeyli va To‘rtko‘lda to‘qimachilik hamda charm sanoatida kamida 150 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi. Nukus shahri, Nukus tumani va Qorao‘zakda elektrotexnika sanoatida 200 million dollarlik, Qorao‘zak, Bo‘zatov va Beruniyda energiya tejamkor qurilish materiallari bo‘yicha 100 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi. Umuman olganda, 15-oktabrgacha har bir tuman bo‘yicha “road show”lar o‘tkaziladi. Viloyat hokimlari o‘z investorlarini jalb qilib, 2-3 ming yuqori daromadli ish o‘rni ochadigan loyihalarni boshlaydi. Ana shunday aniq rejalar katta marralarni belgilash imkonini bermoqda. Jumladan, kelasi yili Qoraqalpog‘istonga 5 milliard dollar investitsiya jalb qilish vazifasi belgilandi. Bunday yirik sarmoya keladigan hududda esa kambag‘allik, ishsizlikka to‘la barham berilishi kerak.

Yig‘ilishda ayni jihat — Qoraqalpog‘istonni kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish, aholi bandligi va daromadini oshirish masalalari muhokama qilindi. Ta’kidlanganidek, buning uchun yetarlicha sharoit yaratilgan. Xususan, Qoraqalpog‘istondagi 2000 tadbirkor uch yilda 2 trillion 145 milliard so‘mlik kreditni vaqtida qaytargan. Bunday ishbilarmonlar banklar uchun ishonchli mijozdir. Shu jihat tufayli “mijozni o‘stirish” modeli asosida yana kamida 30-40 ming odamni ishli va daromadli qilish imkoniyati bor. Hududga mas’ul bank ishonchli mijozlar uchun 16 foiz stavkada 300 milliard so‘mlik kredit liniyasini ochmoqda. Kreditning 4 foizli qismini Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi qoplab beradi. Natijada tadbirkor uchun stavka 12 foizga tushadi. Qolgan 8 ta bankka ham bir oyda shunday qulay mahsulotlarni ishlab chiqish topshirildi. Qoraqalpog‘istonda oilaviy tadbirkorlik kreditlari stavkasi 17,5 foizdan 12 foizga tushiriladi.

Tuman hokimlari shu yil iqtisodiy o‘sish va bandlikka turtki beradigan yana ikkitadan loyihani amalga oshiradi. Shu asosda 10 ming odamni daromadli qiladi. Buning uchun 100 milliard so‘m ajratiladi.

Shuningdek, yig‘ilishda suvni tejash, kanal va ariqlarni betonlash borasidagi ishlar ham tahlil qilindi. Masalan, Bo‘zatovdagi Erkindaryo kanalining 8 kilometrini betonlash hisobiga foydalaniladigan yer 3000 gektarga ko‘payadi. Shuningdek, 15 ming gektarda suv ta’minoti yaxshilanadi. Bundan tashqari, 3 ta suv inshooti va 22 ta artezian quduq barpo etilishi yana 5 ming gektar ozuqa maydonini yaratish imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, bu boradagi ishlarni ham jadallashtirish borasida aniq vazifalar belgilandi.

Umuman, suv xo‘jaligidagi islohotlar tufayli sohada katta o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, o‘tgan yili 30 milliard so‘m hisobiga 276 ta suv nasosi energiya tejamkoriga almashtirildi. Natijada yiliga 16 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejalmoqda. Bu boradagi vazifalar izchil davom etadi. Jumladan, 1-aprelgacha Qoraqalpog‘istondagi 59 ta, qolgan viloyatlardagi yana 200 ta nasos yangilanadi.

Qoraqalpog‘iston — chorvachilik uchun ham qulay hudud. Hozir bu yerda 4 million 300 ming gektar yaylov bor. Shundan 2,5 million gektaridan aholi daromadini oshirish va chorvani ko‘paytirish uchun yetarlicha foydalanilmayapti. “Beruniy agrostar” Qo‘ng‘irot, Beruniy va Chimboyda foydalanishdan chiqqan 2000 gektar yerni tiklab, ozuqa yetishtirishga moslashtirmoqda. Kelasi yili yana 5 ming gektar o‘zlashtiriladi. Bu 14 ming bosh qoramol uchun ozuqa bazasi bo‘ladi. Bo‘zatovda ham 7500 gektar yerni ozuqaga moslashtirishga 100 milliard so‘m ajratiladi. Ozuqa yetishtirishga har gektar uchun 500 ming so‘m subsidiya berish bo‘yicha o‘n kunda qaror loyihasi kiritish vazifasi topshirildi. Bunday topshiriqlarni bajarishda sohada yetarli tajriba to‘plagan mutaxassislar fikri muhim. Shu bois, Misr tajribasini o‘rganish uchun 200 dan ziyod fermer, jumladan, qoraqalpog‘istonlik 26 fermer ushbu davlatga yuborilgan. Dastlabki bosqichda Qoraqalpog‘istonning 20 ming gektar maydonida Misr tajribasi yo‘lga qo‘yiladi. Cho‘llarda ozuqa yetishtirishni ko‘paytirish uchun Misrdan mutaxassislar va texnologiyalar jalb etiladi. Umuman olganda, chorvachilikda yirik komplekslar tashkil etish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi.

Mazkur sohani yanada qo‘llab-quvvatlash uchun qoraqalpog‘istonlik chorvadorlarning 1-2 ming boshli qoramolga mo‘ljallangan komplekslar tashkil etishi uchun kredit miqdori 50 milliard so‘mgacha oshiriladigan bo‘ldi. Endi Orolbo‘yi tadbirkorlari samolyotda olib keladigan naslli buqalar qiymatining 10 foizi, har bir bosh uchun 4 million so‘mgacha subsidiya oladi.

Taxtako‘pirda Shinjon tajribasi asosida ozuqa yetishtiriladi. Qolaversa, Mo‘g‘uliston, Turkiya, Xitoy va Avstraliyadan 5000 bosh qo‘y-echki olib kelinib, Qoraqalpog‘iston sharoitida ko‘paytiriladi. Buning uchun bir oyda 1000 gektar yerni belgilab berish topshirildi.

Davlatimiz rahbari yil yakunigacha 10-15 ming gektarda loyihalarni shakllantirib, bir yilda 100 ming bosh qo‘y-echki boqishni yo‘lga qo‘yish vazifasini belgilab berdi.

Tashrifning ilk kunida Nukus shahrining Ashshiko‘l hududida 50 ming odamga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” massivi — “Nukus siti” qurilishi boshlangan edi. Bu ham Orolbo‘yi aholisining quvonchiga sabab bo‘lib, ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamladi. Ular hozirdanoq 270 gektarda ilg‘or arxitektura yechimlari va energiya tejamkor texnologiyalar asosida osmono‘par binolar, biznes, savdo va servis markazlari shahar ko‘rkiga nechog‘liq fayz bag‘ishlashi haqida suhbatlashmoqda.

Mamlakatimizdagi yana bir yirik loyiha sayr ko‘chalaridir. Nukusdagi Mustaqillik ko‘chasi ham shu asosda kunu tun ishlaydigan maskanga aylandi. Natijada 28 tadbirkor ish boshlab, yana 50 nafarining faoliyati kengaygani hisobiga bir haftada savdo tushumi 2 barobar oshdi. Endi Qoraqalpog‘istonda bu tajriba yanada mustahkamlanib, keng quloch yozadi. Jumladan, Nur va Elobod mahallalari Olmazorning Qichqiriq mahallasi namunasida obod qilinadi. Navro‘z bayramigacha shu yerdagi istirohat bog‘ida aholini jalb qiladigan zamonaviy maskan barpo etish topshirildi. Kegeylida esa 3,5 kilometr zovurni yopib, 100 ta servis obyekti qurish ishlari boshlangan. Buning hisobiga 320 ta ish o‘rni ochiladi. Qolgan viloyat hokimlariga ham Navro‘zgacha o‘ziga biriktirilgan tumanlarda bittadan mahalla va markaziy ko‘chada shunday loyihalarni amalga oshirish vazifasi qo‘yildi. Obod qilingan ko‘cha va mahallalarga aholining o‘zi baho berishi, odamlar ma’qul topsa, ushbu ko‘chalarga ularni obod qilgan viloyatlar nomini berish taklifi bildirildi. Bu nomlar shunchaki atama emas, xalqimiz birdamligi, ahilligining ramzi bo‘ladi.

Yig‘ilishda yoshlar ta’limi, ularning bandligini ta’minlash borasidagi ishlar ham tahlil qilindi. Masalan, Qoraqalpog‘istonda 1 million 100 ming yosh bor. Ularning 505 mingi 14-30 yoshgacha bo‘lganlar. Davlatimiz rahbari bu katta kuch ekanini, yoshlarga to‘g‘ri yo‘nalish berish muhimligini ta’kidladi. Shuningdek, bir yilda 1000, kelgusi ikki yilda yana 5000 yoshni axborot texnologiyalari va logistika sohasida yuqori daromadli ish bilan ta’minlash vazifasi qo‘yildi. Bugun ishli bo‘lish, katta daromad topish uchun uydan olisga ketish shart emas. Til bilish, axborot texnologiyalarini puxta o‘rganish orqali ham shu maqsadga erishsa bo‘ladi. Janubiy Koreyadagi vatandoshimizning olis hududlardagi yoshlarga axborot texnologiyalarini o‘rgatib, ularni yuqori daromadli qilish tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi. Yil yakunigacha shunday kamida 10 iqtidorli vatandoshni Qoraqalpog‘istonga jalb etib, loyihalar boshlash vazifasi topshirildi. Shuningdek, Nukus shahridagi 1-texnikumda yo‘lga qo‘yilgan kasbiy ta’lim tajribasini kengaytirish zarurligi ta’kidlandi. Yangi yildan Amudaryo, Beruniy, Chimboy va Qo‘ng‘irotdagi bittadan texnikumda ham shu tajriba yo‘lga qo‘yiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimi tubdan o‘zgardi. Qoraqalpog‘istonning eng chekka hududlarida yangi bog‘chalar bunyod etildi. Natijada hududda maktabgacha ta’lim qamrovi 84 foizga yetdi. Bu borada hali bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalar borligi ta’kidlandi. Islohotlarni jadallashtirish uchun endi Qoraqalpog‘istonda xususiy bog‘cha ochadigan tadbirkorlarga 15 yil muddatga 5 yillik imtiyozli davr bilan 7 foizli kredit beriladi. Qolgan viloyatlarda kredit stavkasi markazdan uzoq-yaqinligiga qarab, 7 foizdan 15 foizgacha bo‘ladi.

Qoraqalpog‘istonda tibbiy xizmatlar ko‘lami kengayib, sifati oshdi. Masalan, Nukusdagi markaziy shifoxonada jigar va buyrak transplantatsiyasi amalga oshirilyapti. Orolbo‘yi bolalar shifoxonasida 150 turdagi yuqori texnologik tibbiy xizmat ko‘rsatilmoqda. Shu yil bosh miya, yurak va plastik jarrohlik kabi murakkab yo‘nalishlarda 1500 ta operatsiya o‘tkazildi. Ilgari bunday tibbiy xizmatlar uchun hudud aholisi olis yo‘l bosib, uzoq navbatlar kutishga majbur edi. Galdagi vazifa ana shu o‘sish sur’atini izchil davom ettirish ekani qayd etildi. Buning uchun hududda tibbiy sug‘urta mexanizmi joriy etildi. Tibbiyot muassasalariga 10 million dollarlik jihozlar olib berildi. O‘zbekistonda birinchi marta xususiy sheriklik asosida tashkil qilingan Nukus tibbiyot ilmiy akademiyasi soha xodimlari bilimini baholash va malakasini oshirishda metodik markaz bo‘ladi. Qolaversa, Tibbiyot akademiyasi, Bolalar klinikasi, Onkologiya markazi hamda yangi tashkil etiladigan ko‘p tarmoqli shifoxonani yaxlit tizimga birlashtirib, universitet tibbiy klasteri tashkil qilinadi.

Davlatimiz rahbari qoraqalpoq elining buyuk farzandi, shoir Berdaq Qarg‘abay o‘g‘lining “Hamisha sen xizmat etgil xalq uchun, o‘zim dema, g‘amxo‘rlik qil xalq uchun” degan hikmatli so‘zlari bugun ham ahamiyatini yo‘qotmaganini ta’kidladi. Kelasi yili shoir va mutafakkir Berdaq tavalludining 200 yilligini munosib nishonlash taklifi bildirildi.

Xalqqa xizmat qilish borasidagi hikmatni yuragiga muhrlagan qoraqalpoq xalqi tom ma’noda bunyodkorlik, ishbilarmonlik kayfiyatida yashamoqda. Buning tub zamirida iqtisodiy-ijtimoiy masalalar hal etib borilayotgani turibdi. Ularning izchil va barqaror davom etishi uchun xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘zligini anglashi, tarixga hurmat, kelajakka ishonchni his etishi kerak. Shu ma’noda, shoirning ilmiy-ijodiy merosini o‘rganish, raqamlashtirish, asrab-avaylash va yoshlarga yetkazishni qamrab olgan dasturni bir oyda ishlab chiqish topshirildi.

Yig‘ilish yakunida hudud va tarmoqlar rahbarlarining axboroti tinglandi, Qoraqalpog‘iston faollari bilan muloqot qilindi.

Shu bilan Prezidentimiz Qoraqalpog‘istonga tashrifini yakunlab, Toshkentga qaytib keldi.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
Boboravshan G‘OZIDDINOV,
Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari

Dil izhori

YANGI O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHILARI 616 MILLION SO‘MLIK MUKOFOT OLYAPTI

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbarining Qoraqalpog‘istonga tashrifi biz, o‘qituvchilar uchun ham katta quvonch olib keldi. Tig‘iz ish kuni, katta reja va mislsiz loyihalar muhokamasidan vaqt ajratib, Prezidentimiz biz bilan muloqot qilib, qanday masalalarimiz borligiga qiziqdi. Muallimlarning obro‘si baland, mamlakat rahbari ularga hurmat ko‘rsatgan zaminda o‘sish, rivojlanish bo‘lishini yurtimizdagi islohotlar misolida ko‘rib turibmiz.

Prezidentimiz o‘qituvchining oylik maoshi 2000 dollar bo‘lishini aytganida unchalik ishonqiramay qaraganlar ham bo‘ldi. Bugun o‘sha gaplar ayni haqiqatga aylandi. Masalan, o‘zim yaratilgan adolatli tizim natijasida 2000 dollar ekvivalentida maosh olaman. Bu yil esa “Yil o‘qituvchisi” tanlovida ishtirok etib, g‘olib bo‘ldim va 50 ming dollardan ziyod mukofotni qo‘lga kiritdim. Bunga yetib kelguncha o‘z ustimda ishladim, tinimsiz izlanib, sohaga mehr berdim.

Qonliko‘l tumanidagi 2-maktabda o‘zbek tili fani o‘qituvchisiman. Mehnat faoliyatimni 2008-yil Nukus shahridagi 38-maktabda boshlaganman. 2010-yilda bakalavriat, 2013-yilda magistratura bosqichini o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha tamomlaganman. 2023-yilda mustaqil tadqiqotchi sifatida “O‘zbek va qoraqalpoq tillarida nutqiy ma’noli frazemalar” mavzusida ilmiy ishimni yoqladim. 2020 va 2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida dars ishlanmalarim ommalashdi. Shuningdek, 2023-yilda “Yilning eng yaxshi o‘zbek tili o‘qituvchisi” tanlovining respublika bosqichi g‘olibi bo‘ldim.

O‘quvchilarim fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgani bois, Prezidentimizning tegishli qarori bilan maoshimga 100 foiz, respublika olimpiadasi g‘olibi sifatida yana 100 foiz ustama to‘lanadi. O‘zbek tili bo‘yicha milliy sertifikatdan A+ darajasi sohibiman. Bunga 50 foiz, shuningdek, vazir jamg‘armasidan 70 foiz ustama olaman. Qolaversa, ilmiy ishim borligi uchun 30, direktor jamg‘armasidan ham 30 foiz ustama beriladi. Qonliko‘l tumanida filologiya yo‘nalishi bo‘yicha mentor sifatida faoliyat yurityapman. Ya’ni o‘qituvchilarga darsni qay darajada tashkil etish kerakligi bo‘yicha ham seminarlar o‘tyapman. Bir qancha o‘quvchilarim o‘zbek tilidan milliy sertifikat egasi.

Prezidentimizning har gal o‘qituvchilar haqidagi fikrlarini eshitganimda katta yutuqlarimiz haqida mulohaza yuritaman. Ko‘nglimdan shuncha imkoniyat, shuncha ehtirom sabab bunday yutuqlar o‘qituvchi uchun odatiy ish tartibi bo‘lishi kerak degan o‘y o‘tadi.



Nigora ALLAMBERGENOVA,
Qonliko‘l tumanidagi
2-maktab o‘qituvchisi

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

YANGILANISHLARGA HISSA QO‘SHAYOTGANIMIZDAN MAMNUNMIZ

Yoshim bir joyga yetgan bo‘lsa ham, Yaratganga shukr, salomatligim yaxshi. Nuroniylar bilan birga mahallalardagi ishlarga baholi qudrat hissa qo‘shay deb yoshlarning tarbiyasiga ham, ajralishlarning oldini olishga ham bosh-qosh bo‘lib yuribman.

Mahallalardagi faol keksalarning har biriga 5 tadan kambag‘al oilani biriktirib qo‘ydik. Ularni og‘ir turmush tarzidan chiqarish uchun bor imkoniyatdan foydalanyapmiz, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatyapmiz.

Bugun faoliyatimizni kengaytirib, har bir nuroniyga maktabni bitirgan, lekin o‘qishga kirolmagan, ish topolmagan, bo‘sh yurgan 10 nafardan yoshni biriktirdik. Asosiy e’tibor tarbiyasi og‘ir o‘g‘il-qizlarning jamiyatda o‘rin topishiga qaratilmoqda. Bunday yoshlar bilan muloqotlar o‘tkazilib, qiziqishi, layoqatiga qarab, bandligini ta’minlay boshladik. Bu borada ish o‘rni ochayotgan tadbirkorlar bilan hamkorligimiz ham katta ahamiyatga ega bo‘lyapti.

Prezidentimiz tumanimizga tashrif buyurib, mahalladoshlarimiz, faollarimiz va keksalarimiz bilan suhbatlashdi. Uchrashuvda aholining turmushi farovonligi, hududlar obodligini ta’minlashga xizmat qilayotgan islohotlarda nuroniylar ham faol qatnashayotgani e’tirof etildi.

Qoraqalpog‘istonda yuqori texnologik tibbiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami kengayib bormoqda. Jumladan, Nukusdagi markaziy shifoxonada jigar va buyrak transplantatsiyasi amalga oshirilmoqda. Orolbo‘yi bolalar shifoxonasida 150 turdagi yuqori texnologik tibbiy xizmat ko‘rsatilmoqda. Shu yil bosh miya, yurak va plastik jarrohlik kabi murakkab yo‘nalishlarda 1500 ta operatsiya o‘tkazildi. Hududda tibbiy sug‘urta mexanizmi joriy etilgan. Tibbiyot muassasalariga 10 million dollarlik jihozlar olib berildi.

Aholi madaniy hordiq chiqarishi, sayr qilishi uchun Nukus tumanidagi anhor bo‘yida kunu tun faoliyat yurituvchi 1,5 kilometrli sayilgoh qurildi. Odamlar bu yerga kelib, sayr qiladi, maroqli dam oladi.

Bugungi islohotlarga kamarbasta bo‘lish — biz, oqsoqollar uchun katta baxt. Imkon qadar hozirgi yangilanishlar, qurilish va obodonlashtirish ishlariga ulush qo‘shayotganimizdan mamnunmiz. Kelajagi buyuk yangi O‘zbekistonda, yangi Qoraqalpog‘istondek fayzli yurtda yashayotganimizdan faxrlanamiz.



Juginis QAYIPOV,
“Nuroniy” jamg‘armasining
Nukus tuman bo‘limi raisi

MAHALLADOSHLARIMGA ASALARI BOQISHNI O‘RGATISHNI MAQSAD QILGANMAN

Nukus tumanidagi Diyqan arna mahallasida 3600 dan ziyod odam yashaydi. Mahallamizda investitsiya dasturi doirasida 4,5 milliard so‘m mablag‘ hisobidan 60 o‘rinli zamonaviy bog‘cha foydalanishga topshirilgan bo‘lsa, mahalliy byudjetdan 1 milliard so‘m evaziga futbol va vorkaut maydonchalari barpo etilgan.

Asalarichilik mahallamizning asosiy drayverlaridan. Hozir 20 dan ortiq xonadonda asalari boqilmoqda. Har bir xonadonda 50-100 qutidan asalari bo‘lib, aholi asaldan yaxshigina daromad olmoqda.

O‘zim 2018-yildan buyon asalarichilikni kengaytirib kelyapman. Xonadonimda asalni qayta ishlash sexini ochganman. Shuningdek, asalari qutilari tayyorlashni ham yo‘lga qo‘yganmiz. Ustaxonamizda yiliga 250 tadan ortiq asalari qutisi tayyorlanib, qo‘shimcha 80 million so‘mgacha daromad ko‘ryapmiz. Eng asosiysi, yiliga 200-300 million so‘m atrofida foyda olyapmiz. Shuning orqasidan uylar qurib, farzandlarimizni o‘qitib, to‘ylar qilyapmiz.

Prezidentimiz Qoraqalpog‘istonga tashrifi chog‘ida bizning Diyqan arna mahallasida bo‘lib, aholi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari bilan uchrashuv chog‘ida asalarichilikni yanada rivojlantirish, kambag‘al oilalar bandligini ta’minlashga hissa qo‘shmoqchi ekanimni aytdim. Prezidentimiz kamtarona mehnatlarimni yuqori baholab, “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotladi. Albatta, bunday yuksak siylovdan katta kuch olib, ushbu sohani ommalashtirish va mahalladoshlarimga asalari boqishni o‘rgatishni o‘zimga maqsad qilib qo‘ydim.

Bu yil 15 ta oilani kambag‘allikdan chiqarishga ko‘maklashgan bo‘lsam, kelgusi yili 30 ta oilaning bandligini ta’minlash orqali og‘ir turmush sharoitidan chiqarishni niyat qildim. Shuningdek, suhbat chog‘ida Prezidentimizga asalarichilik sohasida fidokorona mehnat qilayotgan soha vakillariga maxsus ko‘krak nishoni taqdim etish bo‘yicha taklifimni bildirdim. Prezidentimizning ushbu taklifni qo‘llab-quvvatlaganidan juda xursand bo‘ldim.



Baxtiyar JUBAYEV,
“Do‘stlik” ordeni sohibi

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

3

2026-yil 20-sentabr, 195-son

Bugungi kunda Taraqqiyot strategiyasi va strategik islohotlarning jamiyat uchun ahamiyati shundaki, ularning fidokorona ruhi va innovatsion xususiyati millionlab kishilarning dunyoqarashini o‘zgartirmoqda.

Buyuk o‘zbek yo‘li

EZGU FIKR, EZGU SO‘Z VA EZGU AMALLAR MAMLAKATI



Qiyomiddin NAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Tasodifan dunyoga kelmagan...

Muqaddas kitoblardan birida “Barchasi so‘zdan boshlanadi”, “Yaratgan “Bo‘l” dedi, barcha narsalar paydo bo‘ldi”, deb bejiz aytilmagan. Bu jihatdan “Yangi O‘zbekiston”, “Uchinchi Renessans”, “Harakatlar strategiyasi”, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” va hozirgi kunda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi” kabi atamalar ham 2016-yildan keyingi davrning ezgu fikrga tayanadigan va ezgu amallarga asos bo‘layotgan ezgu so‘zlardir deyish uchun dalillar va isbotlar yetarli.

Bu o‘rinda O‘zbekiston taraqqiyotining ushbu ezgu so‘zlar ustuvor bo‘layotgan yangi bosqichida Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan va puxta ishlab chiqilgan Taraqqiyot strategiyasi nazariyasi shakllanishi va takomili, uning amaliyot davrlari to‘g‘risidagi masalaga oydinlik kiritish lozim.

Ba’zilar uni 2017-yildan, ya’ni Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari bo‘lgan ilk yillarda ishlab chiqila boshlandi va u dastlab 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi sifatida namoyon bo‘ldi deb hisoblaydi.

Formal jihatdan, ya’ni shaklan shunga o‘xshaydi. Ammo bunday fikrlar ushbu nazariyaning genezisi, ya’ni Prezidentimiz tomonidan uning yaratilish tarixi, ijtimoiy-falsafiy asoslari va ilmiy bilish tamoyillari jihatidan hayot haqiqatiga to‘g‘ri kelmaydi.

Agar biz davlatimiz rahbarining mazkur ta’limot to‘la-to‘kis namoyon bo‘la boshlagan 2016-yildan oldingi va keyingi fikrlari dinamikasi hamda ilmiy-nazariy va amaliy takomilini “Nazariyalar qonuni” deb ataladigan falsafiy paradigma asosida tahlil qilsak, buning yaqqol isbotini ko‘ramiz.

Ya’ni har qanday nazariya to‘la-to‘kis shakllanishi va amaliyotda biror shaklda namoyon bo‘lishidan oldin uning muallifi ongi va tafakkurida bu haqdagi fikrlar, xulosa va amaliy talqinlar jamlanadi, uning amaliyotiga doir muhim gipotezalar ishlab chiqiladi.

Nazariyalar shakllanishi qonuniyatlariga ko‘ra, aksariyat hollarda muallif tafakkurida dastlab muayyan fikrning tug‘ilishi va uning g‘oyaga aylanish jarayoni ro‘y beradi. Ya’ni bo‘lajak nazariya muayyan vaqt davomida shakllanadi, kamolga yetadi va sayqallanib boradi.

Bugungi kungacha mamlakatimizning “Harakatlar strategiyasi”, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va hozirgi kunda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi” kabi nomlar bilan atalib kelinayotgan rivojlanish dasturi aslida ana shunday qonuniyat asosida, Prezidentimiz tafakkurida 2000-yillar boshlaridayoq aniq-tiniq shakllangan yaxlit nazariya ekani yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayni shu ma’noda, “Yangi O‘zbekiston”, “Uchinchi Renessans”, “Yangi ma’naviy makon” kabi ezgu so‘zlar ham keyingi davrda shakllangan va uning muhim natijalari bo‘lib hisoblanadi.

Bu jihatdan alohida ta’kidlash joizki, keyingi o‘n yil davomida Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga aylangan ushbu yaxlit nazariya asoslari, uning tayanch tushunchalari, Prezidentimizning bu boradagi ezgu fikrlari va ezgu so‘zlari ibtidosi 2016-2017-yillarda emas, balki ancha oldin, bugungi asrimiz bo‘sag‘asida shakllangan va 2000-yillardan boshlab to‘la-to‘kis kamolga yetgani shubhasiz.

O‘z-o‘zidan amalga oshmaydigan jarayon

Har qanday ezgu fikr o‘z-o‘zidan amalga oshavermaydi. U, avvalo, ezgu so‘zda ifodalanishi, uni amalga oshiruvchilarning qalbi va ongiga yetkazilishi kerak.

Shu munosabat bilan bir misolni, ya’ni 2005-yil 7-fevralda Vazirlar Mahkamasi majlislar zalida bo‘lib o‘tgan yig‘ilish va unda o‘sha paytda Bosh vazir bo‘lgan Prezidentimizning qator topshiriqlari va ko‘rsatmalarini eslash joiz deb o‘ylayman. Majlis o‘sha yilgi davlat dasturini shakllantirish, uning birinchi boshlang‘ich qismi davlat boshqaruvi va jamiyat hayotini liberallashtirish va modernizatsiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini tuzishga doir masalalarga bag‘ishlangan edi.

Kechagidek esimda, davlat dasturi bir necha qismda bo‘lishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, uning birinchi qismini tuzish bo‘yicha shakllantirilgan ishchi guruh rahbari Bosh vazir, biz — bir necha kishi esa uning a’zolari edik. Majlis avvalida Bosh vazir yil dasturi va uning birinchi qismiga doir umumiy maqsad va vazifalar, har bir yo‘nalishning mohiyati hamda undan kutilayotgan natijalar qanday bo‘lishi to‘g‘risida fikr yuritdi.

Dasturning rahbar kadrlar tayyorlash va kompetentlik darajasini oshirish haqidagi bandiga kelganda esa bu borada quyidagi uch yo‘nalishda ishlash kerakligini uqtirdi.

Birinchi yo‘nalish — jahonning ilg‘or mamlakatlarida qo‘llanilayotgan strategemalar nazariyasi va rivojlanish strategiyalari amaliyotiga doir tajribalarni va uni O‘zbekistonga tatbiq etish yo‘llari, imkoniyatini chuqur o‘rganish, bu borada amaliy takliflar va tavsiyalar tayyorlash.

Ikkinchi yo‘nalish — Prezident huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining kadrlar tayyorlash sohasidagi faoliyatini tubdan o‘zgartirish, ushbu muassasani strategik boshqaruv yo‘nalishiga o‘tkazish, bu borada yangi konsepsiya va dastur ishlab chiqish, ularni akademiya faoliyatiga tizimli tatbiq etish.

Uchinchi yo‘nalish — strategik tafakkurga ega bo‘lgan va strategik boshqaruv ko‘nikmalarini egallagan yangi avlod kadrlarini tayyorlash, bu borada akademiyadagi o‘quv jarayonini interaktiv usul va modul tizimiga o‘tkazish, “Milliy g‘oya va taraqqiyot strategiyasi” tayanch o‘quv-metodik markaz tashkil qilish, “O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” o‘quv modulini ishlab chiqish va uni 2005-yil sentabr-oktabr oylaridan boshlab akademiya ta’lim tizimiga joriy etish.

To‘g‘risini aytsam, kuni kecha akademiyaga ishga kelganim uchun hali kalavaning uchini topa olmayotgan va ishni nimadan boshlashni bilmay turgan edim. Bosh vazirning o‘sha majlisdagi fikr-mulohazalari, ko‘rsatma va topshiriqlari menga nihoyatda katta yordam, keyingi faoliyatim uchun muhim asos va dasturilamal bo‘lganini tan olishim kerak.



Shu bilan birga, hali strategema nima, strategiya, strategik tafakkur va strategik boshqaruv nimaligini o‘zim ham yaxshi bilmas edim va ular haqida tasavvurlarim nihoyatda sayoz edi.

Shuning uchun Bosh vazir “Bu borada savollar yoki tushunmaydigan masalalaringiz bormi?” deb so‘raganida “Ha bor, qaysi mamlakatlarning tajribasini o‘rganishdan ishni boshlaylik?” deb murojaat qildim.

Bosh vazir qisqagina qilib “Avval qadimgi Xitoy va Yunonistonni, keyin hozirgi Germaniyani o‘rganinglar. O‘zimizning tariximizda ham ibratli misollar bor. Shularni o‘rganish asosida bir oyda konsepsiya, yo‘l xaritasi, o‘quv dasturlari, ilmiy-amaliy loyihalar va boshqa kerakli hujjatlarni tayyorlanglar. Barchasini o‘zimga ko‘rsatasizlar, keyin maslahatlashamiz”, dedi.

Xorij tajribasi nima uchun muhim?

O‘sha davrda Bosh vazir topshirig‘iga ko‘ra yo‘lga qo‘yilgan o‘rganishlar ko‘rsatdiki, xorijiy Sharq va G‘arb mamlakatlarida zamonaviy strategemalar nazariyasi va strategik taraqqiyot tamoyillari asoslarini tahlil qilish uchun muayyan ilmiy manbalar yaratilgan. Har qanday strategiyaning o‘qildizi bugungi kunda “Strategemalar nazariyasi” deb atalayotgan, aslida esa qadimgi Xitoyda va Yunonistonda alohida ilmiy-amaliy tarbiya yo‘nalishi sifatida mavjud bo‘lgan ma’rifiy omillarga asoslanadi.

Xususan, ushbu sohaning ildizlari qadimgi Xitoyda bundan qariyb 25 asr ilgari ishlab chiqilgan va “Moulyuyesyuye” deb nom olgan alohida fan sifatida o‘rganib kelingan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Xitoyda 2500 yillar avval harbiy va siyosiy donishmandlar tomonidan strategiya ilmi asosida yotadigan umumiy qonunlar va qator qoidalarni ishlab chiqishga urinishlar boshlangan. Natijada o‘sha davrlarda “Jang san’ati”, “Dao de Szin” va “36 strategema” asarlari paydo bo‘ldi. Ushbu davrda Xitoy zaiflashgan va bir qancha mustaqil davlatlarga bo‘lingan, uni birlashtirish va yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish birinchi darajali vazifaga aylangan edi. Bu vazifani bajarish jarayoni ming yildan ortiq vaqtni o‘z ichiga oldi va unda yuzlab siyosiy arboblar, sarkardalar va oddiy xalq ishtirok etgan.

Natijada butun Xitoy uchun nihoyatda muhim, dunyo mamlakatlari uchun o‘rnak va ibrat misoli bo‘lgan strategik jarayon amalga oshgan. Ya’ni asrlar davomida strategemalarni ongi va qalbiga jo qilgan yagona xitoyliklar, islohotchi xalq shakllangan. Asrlar o‘tavergan, avlodlar kelib ketavergan, ammo yuz yillarga cho‘zilgan islohotlar davom etavergan va shu tariqa Xitoy xalqining birlashuvchanlik va islohotchilik ruhi saqlanib, mustahkamlanib boravergan. Bunday ijtimoiy voqelik hozirgacha ham Xitoyda o‘z ta’sirini saqlab qolmoqda.

Bu borada qadimgi Xitoyning atoqli faylasufi, eramizdan avval 604-531-yillarda yashagan alloma, “Dao de Szin” nomli falsafiy va harbiy asar muallifi, daosizm ta’limoti asoschisi Lao Szi, eramizdan avvalgi 544-496-yillarda yashagan xitoy donishmandi va sarkardasi, harbiy strategiya to‘g‘risidagi mashhur “Jang san’ati” kitobi muallifi Sun Szi, konfutsiychilikning eramizdan avvalgi 551-479-yillarda yashagan asoschisi Konfutsiyning strategemalarga doir nazariya va ta’limotlari muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, uning “Farovonlikka erishish — maqsad, barqarorlik — buning uchun zarur shart-sharoit, islohotlar esa maqsadga yetishning eng ma’qul usulidir”, degan strategemasi nafaqat Xitoy, balki hozirgacha ham transformatsiya jarayonida bo‘lgan har qanday mamlakat, jumladan, yurtimiz uchun ham umumiy tamoyil sifatidagi ahamiyatini yo‘qotmagan.

G‘arb mamlakatlarida “strategiya” va “strategema” kabi tushunchalar uchun asos, negiz bo‘lgan “strateg” atamasi yunonchada “stratos” — lashkar, qo‘shin, “ago” — yetaklayman, boshqaraman, ergashtiraman degan ma’nolarni anglatadi. Qadimgi Yunonistonda u yuqori darajadagi huquqlarga ega bo‘lgan harbiy rahbar, lashkarboshilarning mansabi va martabasini anglatgan. Hozirgi davrda uning mazmuni ancha kengaygan va nafaqat harbiy, balki davlat boshliqlari va jamoat arboblariga nisbatan ham qo‘llaniladi.

“Strategema” tushunchasi esa qadimgi grek tilidagi “stratagemata” so‘ziga borib taqaladi. Ushbu tushuncha G‘arbda birinchi marta qadimgi Rim davlat arbobi Sekst Yuliy Frontin tomonidan yozilgan “Strategematon” asarida qo‘llanilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Asrlar davomidagi transformatsiyalar tufayli mazkur tushuncha bugungi G‘arb mamlakatlarida davlat yoki jamiyatning muayyan maqsadlarga erishish uchun qo‘llaydigan murakkab, puxta o‘ylangan siyosati, uni amalga oshirishning taktik va strategik usullari majmuasini anglatadi.

“Strategiya” so‘zi ham shu asosda shakllangan va qadimda ayni shu etimologik ma’no-mazmunda qo‘llanilgan. Ammo qadimgi davrga xos ushbu dastlabki ma’no-mazmun hozirgi zamonga kelib transformatsiyaga uchragan va yangilangan. Ya’ni strategiyaga inson aqlu idroki, faoliyati bilan bog‘liq barcha sohalarga taalluqli ijtimoiy faoliyat shakli, ma’naviy voqelik usuli sifatida qaralmoqda.

Shuning uchun iqtisodiyot, savdo-sotiq, biznes, sport, ijtimoiy boshqaruv, ta’lim-tarbiyaga oid strategemalar to‘plamlari Sharqda ham, G‘arbda ham yuz minglab nusxalarda chop etilmoqda. Ular asosida ko‘plab Sharq va G‘arb mamlakatlari o‘z strategiyalarini ishlab chiqqan va amaliyotda samarali qo‘llamoqda.

Ajdodlar o‘giti va bugungi amaliyot

Bundan 21-yil burun Bosh vazir topshirig‘iga ko‘ra yurtimizda shakllangan strategemik tafakkur va bu boradagi milliy tajribalarni o‘rganar ekanmiz, juda qiziqarli, hatto mutaxassislar ham unchalik e’tibor bermagan, ammo nafaqat tarixiy ongimiz, balki bugungi kunimiz uchun ham nihoyatda zarur dalillar va misollarga duch keldik.

Bu jihatdan Amudaryo va Sirdaryo havzasi xalqlari uchun umumiy ildiz bo‘lgan Zardusht ta’limoti va “Avesto” kitobining asrlardan asrlarga yetib kelayotgan ta’sirini ta’kidlash lozim. “Avesto”da qadim ajdodlarimizning “Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal” shaklida ifodalangan strategemasi va unga asoslangan falsafiy konsepsiya o‘z aksini topgan. Shu sababdan ushbu asarning “Hayot yo‘riqnomasi” deb atalishi aslo bejiz emas.

Alloma bobomiz Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”i, saljuqiylarning dono vaziri Nizomulmulkning 1091-yilda yozilgan “Siyosatnoma”si ham bu boradagi umuminsoniy va milliy tajribalar to‘plangan yirik asarlardir.

Amir Temurga nisbat beriladigan va xalqimizga xos ko‘plab ma’naviy tamoyillar aks etgan tarixiy-siyosiy risola bo‘lmish “Temur tuzuklari” asari ham zamonaviy strategeologiyaning muhim manbalaridan biridir.

Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, Mirzo Boburning “Boburnoma”, Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarai turk”, Ahmad Donishning “Nodir voqealar” kabi asarlari o‘zbek strategeologiyasi tarixidan munosib joy egallagan.



Bu jihatdan Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asari yozilishi va 2020-yilda, yangi davrning dasturilamali sifatida chop etilishi nihoyatda muhim ahamiyatga molikdir. Ushbu asar, bir tomondan, xalqimiz tarixida mavjud bo‘lgan strategemalarga doir xalqaro va milliy tajribalarni umumlashtirgan, ikkinchi tomondan, insoniyat rivojining hozirgi davri uchun muhim strategiyalardan biri ishlab chiqilgan nodir manbalar sirasiga kiradi.

Shuning uchun uning nafaqat xalqimiz, balki jahon jamoatchiligi tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilayotgani va turli tillarga tarjima qilinayotgani bejiz emas.

Xullas, zukko gazetxonlarimiz 2005-yil 7-fevralda Bosh vazirning strategiyalar masalasida Xitoyni va Yunonistonni o‘rganish, o‘zimizning tariximizda ham ibratli misollar borligi haqidagi fikri va topshirig‘i bejiz bo‘lmaganini tarixiy tajribalarga doir ushbu ma’lumotlardan teran anglab olayotgan bo‘lsalar kerak deb o‘ylayman.

Qizig‘i shundaki, Bosh vazir o‘sha topshiriqni bergan va bu boradagi fikr hamda ko‘rsatmalarini bayon qilgan 2005-yilda G‘arbda strategemalar va strategiyalarga doir yangi davr nazariyalari endigina shakllanayotgan edi.

Bu borada voqealar rivoji qonunlariga tayanib aytish mumkinki, o‘sha davrdayoq Bosh vazir ongi va qalbida “Bizda ham ana shunday tarixiy strategemalar bor-ku? Xalqni farovonlikka boshlaydigan, uni birlashtiradigan va islohotchi millatga aylantiradigan taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish mumkin-ku” degan g‘oyalar paydo bo‘lgani va ular 2016-yil oxirigacha sayqallanib borgani shubhasiz.

Hozirgi davrda ushbu g‘oya Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga samarali tatbiq etilgan Harakatlar strategiyasi va Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda bugungi kunda amalda bo‘lgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi misolida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida o‘tgan keyingi yillarda bu boradagi ezgu fikrlar va ezgu so‘zlar ezgu amallarga aylanayotganiga guvohmiz. Bu boradagi islohotlarning asosiy mezoni sifatida inson qadrini oshirish, huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan “Inson — jamiyat — davlat” tamoyiliga tayanilayotir.

Keyingi o‘n yillikdagi tub o‘zgarishlar va islohotlar tufayli iqtisodiyotimizga 160 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritilgani, bugungi kunga kelib mamlakatimizning tashqi savdo aylanmasi 81 milliard dollarni, eksport esa 34 milliard dollarni tashkil qilgani buning yaqqol dalilidir.

Minglab zamonaviy korxonalar ishga tushirilgani, tariximizda ilk bor milliy sun’iy yo‘ldosh fazoga uchirilgani, yurtimizga birgina o‘tgan yili 11 million xorijlik sayyoh kelganini bundan o‘n yil ilgari tasavvur ham qilib bo‘lmas edi.

Tadbirkorlik va ishbilarmonlik, biznes va yakka tartibdagi ish yuritish, mulkiy plyuralizm va mulkdorlar manfaatlarini himoya qilishga doir samarali dasturlar amalga oshirilayotgani bu boradagi islohotlar bardavomligidan dalolat beradi.

Jamiyatimizning tobora ijtimoiy davlatga aylanib borayotgani, aholining ehtiyojmand qatlamlariga keng miqyosda yordam berilayotgani, ularning maqsad-muddaolari va orzu-umidlarini yuzaga chiqarishning yangi va yangi imkoniyatlari izlab topilayotgani va amaliyotga samarali joriy etilayotgani ham ana shunday misollar qatorini to‘ldirmoqda.

Zarrada quyosh aksi

Bularni yozar ekanman, maqola boshlanishida aytganimiz — 2005-yil 7-fevralda Vazirlar Mahkamasi majlislar zalida bo‘lib o‘tgan yig‘ilish va unda o‘sha paytda Bosh vazir bo‘lgan Prezidentimizning topshiriqlari va ko‘rsatmalarining bitta muassasa, ya’ni Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi hayotida bamisoli zarrada quyosh aks etganidek yaqqol namoyon bo‘lganini eslash joiz deb hisoblayman.

Bugun barchamiz Prezidentimizning bundan bir necha o‘n yillar oldingi ezgu fikrlari ro‘yobga chiqayotganiga, ular qatoriga hozirgi kunlardagi yana ko‘plab ezgu g‘oyalar va ezgu so‘zlar qo‘shilayotganiga, samarali amalga oshayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz.

Keyingi yillarda har bir sohaga mos strategiya va g‘oyalar ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish tajribasi samarasini bermoqda. Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlar ushbu jabhadagi belgilangan vazifalarni amalga oshirishning metodologik asosini tashkil qiladi.

Bugungi kunda Taraqqiyot strategiyasi va strategik islohotlarning jamiyat uchun ahamiyati shundaki, ularning fidokorona ruhi va innovatsion xususiyati millionlab kishilarning dunyoqarashini o‘zgartirmoqda.

Bu, o‘z navbatida, ko‘plab istilolar natijasida islohotchilik tafakkuridan mosuvo bo‘lgan xalqimizning yana qayta islohotchi millatga, ezgu fikr va ezgu so‘zlarning ezgu amallarga aylanishiga xizmat qilmoqda.

2026-yil 20-sentabr, 195-son



Fuqarolar o‘z huquqi himoya qilinayotgani, murojaatlari xolis ko‘rib chiqilayotgani va qonun oldida hamma teng ekanini his qilsa, jamiyatda o‘zaro ishonch ortadi. Ishonch esa hamjihatlik, faol fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiradi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

“Odil sudlov — 2030” strategiyasi

ADOLAT BOR JOYDA ISHONCH VA TARAQQIYOT BO‘LADI



Ra’no HUSAINOVA,
Fuqarolik ishlari bo‘yicha O‘rta Chirchiq tumanlararo cudi sudyasi, yuridik fanlar nomzodi

Adolatga har kuni duch kelamiz. Har bir xatti-harakatda uni his qilamiz. Davlat xizmatchisi va fuqaro, rahbar va xodim munosabatida adolat o‘zini yaqqol namoyon etadi. Ota-onaning farzand tarbiyasida, ustozning o‘quvchiga xolis baho berishida ham adolat bor.

U haqida o‘ylar ekanman, mustaqillikning 35-yilligi bayrami bilan tabriklash jarayonida davlatimiz rahbari elning ko‘nglidagi gapni topib aytdi: “Adolat qaror topgan joyda iqtisodiy o‘sish ham, ijtimoiy ishonch ham yuksaladi”.

Mazkur so‘zlar zamirida adolat tushunchasi nafaqat sud-huquq sohasi, balki jamiyatning har bir jabhasiga tegishli ekani, xususan, mulk shaklidan qati nazar, har bir korxonada, mahallada, xonadonda adolat ustuvor bo‘lishi zarurligi haqidagi haqiqat mujassam. Inson qalbi adolatga yo‘g‘rilgan taqdirda yurtning mustaqilligi barqaror bo‘lishi ushbu o‘gitning mazmunini anglatadi.

Bugun dunyo tez o‘zgarmoqda. Insonni tushunish, hayotni idrok etish samara bermoqda. Zamonaviy texnologiyalar yangidan yangi imkoniyatlarga zamin hozirlamoqda. Kechagi tushuncha bugunga, bugungi ixtiro esa ertaga oddiy voqea bo‘ladi. Ammo adolat o‘zgarmay qoladi. Har qancha islohot bo‘lmasin, adolatning salmog‘i har bir davrning mezoni sifatida o‘z barqarorligini saqlab qoladi.

Darhaqiqat, adolat jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydigan eng muhim omillardan. U qaror topgan joyda inson huquq va manfaatlari himoya qilinadi. Fuqarolarning davlat institutlariga ishonchi ortadi. Iqtisodiy faollik, ijtimoiy farovonlik uchun mustahkam zamin yaratiladi. Adolatli jamiyatda har bir inson o‘z mehnati, bilimi va tashabbusi bilan munosib natijaga erishishi mumkinligiga ishonadi. Iqtisodiy o‘sish ham adolat tamoyillari bilan chambarchas bog‘liq.

Yana bir muhim jihati ijtimoiy ishonchni mustahkamlashidir. Fuqarolar o‘z huquqi himoya qilinayotgani, murojaatlari xolis ko‘rib chiqilayotgani va qonun oldida hamma teng ekanini his qilsa, jamiyatda o‘zaro ishonch ortadi. Ishonch esa hamjihatlik, faol fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiradi. U bor joyda odamlar befarq bo‘lmaydi. Vatani mahallasi, shahri taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashaydi. Farzandining kelajagiga ishonadi, bilim olishga intiladi, yangi g‘oyalar yaratadi, jamiyat hayotida faol ishtirok etadi.

O‘tgan vaqtda orttirilgan amaliy tajribadan angladimki, zamonaviy sudya qonun bilan birga, sud ostonasidan o‘tgan insonlarning kechinmalarini ham to‘g‘ri anglay bilishi kerak. Sudyaning ish stolida turgan har bir ariza shunchaki oddiy so‘z va raqamlardan iborat jild emas, balki kimningdir uyqusiz kechalari, halovati yo‘qolgan xonadoni yoki cheksiz iztirobidir. Sud zali eshigi ortida xavotir bilan kutayotgan inson uchun bu maskan adolat izlab kelingan so‘nggi umid qo‘rg‘oni bo‘lib tuyuladi.

Sudga murojaat qilgan har bir inson, avvalo, adolat kutadi. Odamlar sud binosiga shunchaki navbatdagi davlat xizmatidan foydalanish uchun emas, balki buzilgan huquqi tiklanishi, haqiqat qaror topishi va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga ishonib qadam qo‘yadi.


Prezidentimizning “Odil sudlov — 2030”: Yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi xalqchil va adolatli sud tizimini barpo etish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni bilan amalga oshirilayotgan islohotlar aynan shu maqsadga — insonni sud tizimining markaziga qo‘yishga qaratilmoqda.

Qonun qanchalik mukammal bo‘lmasin, uni qo‘llash jarayoni inson uchun tushunarsiz, murakkab yoki uzoq bo‘lsa, fuqaro adolatni to‘liq his qilmasligi mumkin. Shuning uchun ham zamonaviy sud oldida faqat qonuniy qaror qabul qilish vazifasi turmaydi, aksincha, sud insonni eshitishi, tushunishi va adolatga erishish yo‘lidagi ortiqcha to‘siqlarni bartaraf etishi ham zarur. Shu bois, ushbu hujjat sud islohotlarining yangi bosqichini belgilab beruvchi muhim siyosiy-huquqiy qadam sifatida e’tirof etilmoqda.



“Odil sudlov — 2030” strategiyasi O‘zbekistonda sud tizimini shunchaki takomillashtirish emas, balki mustahkam tayanchga ega “adolat qo‘rg‘oni”ni yaratish vazifasini qo‘yadi. Bu obrazli ibora zamirida juda katta va teran huquqiy mazmun mujassam bo‘lib, hujjat mazkur tushunchaga rasmiy huquqiy maqom berdi.

Farmonda belgilangan — “xalqchil sud”, “adolat qo‘rg‘oni”, “kafolatlangan adolat”, “adolat posbonlari” va “xalqaro e’tirof” kabi eng muhim tushunchalar el og‘zida yurgan oddiy so‘zlarga chuqur huquqiy mazmun singdirilganidan dalolat beradi. Mana shu mustahkam ustunlar asosida tizimni isloh qilish tartibi belgilangani ko‘zlangan oliy maqsadga erishishga ishonchimizni yanada oshiradi.



> **Sudga murojaat qilgan har bir inson, avvalo, adolat kutadi. Odamlar sud binosiga shunchaki navbatdagi davlat xizmatidan foydalanish uchun emas, balki buzilgan huquqi tiklanishi, haqiqat qaror topishi va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga ishonib qadam qo‘yadi.**

Aynan sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini ta’minlashni umummilliy qadriyatga aylantirish zarurligini alohida ta’kidlagan holda, Prezidentimiz o‘z nutqida mazkur muammolarga aniq tizimli yechimlarni ko‘rsatib o‘tdi. Ularni hayotga tatbiq etish uchun quyidagi uchta muhim va strategik qadamni belgilab berdi.

Birinchisi, huquqiy madaniyatni maktabdan boshlab shakllantirish. Adolatni umumiy qadriyatga aylantirishning bosh omili sifatida huquqiy tarbiyani maktab partasidan boshlab, aniq tizim asosida yo‘lga qo‘yish zarurligi ko‘rsatildi. Zero, huquqiy ong shakllangan jamiyatda nizolar ham kamayadi.

Ikkinchisi, sudlarning chinakam mustaqilligini ta’minlash. Hech bir tashqi kuch yoki mansabdor shaxs sud qarorlariga ta’sir o‘tkaza olmaydigan, sudyalar faqat va faqat qonunga bo‘ysunadigan xolis muhitni kuchaytirish adolatning bosh kafolatidir.

Uchinchisi, fuqarolar va tadbirkorlarning kafolatlarini kuchaytirish. Har bir inson va ishbilarmon o‘zining haq-huquqlari davlat hamda sud tomonidan ishonchli himoya qilinishini amalda his etishi, qonun oldida barchaning tengligi ta’minlanishi shart.

Sudyaning birinchi va eng muhim tayanchi qonundir. Sud qarorining zamirida shaxsiy xohish-istak, kayfiyat yoki tashqi ta’sir emas, balki faqat va faqat qonun ustuvor turishi shart. Qonun sudyaga yuksak vakolat berish bilan birga, uning chegarasini va qarorining huquqiy asosini ham belgilaydi. Biroq qonunni shunchaki bilishning o‘zi kifoya emas. Uni to‘g‘ri, xolis va adolatli qo‘llash zarur. Chunki insonlar sud qaroriga qarab davlatning qonunga, inson qadr-qimmatiga munosabatiga baho beradi. Shu ma’noda, har bir adolatli sud qarori — mamlakatda qonun ustuvorligining amaldagi eng oliy ifodasi.

Sudyaning ikkinchi va mustahkam tayanchi mustaqillikdir. Sudning mustaqilligi shaxsiy imtiyoz yoki daxlsizlik niqobi emas, balki adolat va inson huquqlari to‘liq ta’minlanishi uchun asosiy shart. Chinakam sudya qaror qabul qilayotgan qaltis soniyalarda har qanday mansabdorning tahdididan, siyosiy bosimlardan, ijtimoiy tarmoqlarning shov-shuvlaridan, ommaning his-tuyg‘ularidan va hatto o‘z emotsiyalaridan ham baland tura olishi lozim. Sud kursisida o‘tirgan insonning qalbida qo‘rquv va ikkilanish yashasa, u yerda adolat o‘ladi. Qo‘rqoq va hissiyotlariga asir sudya hech qachon mustaqil bo‘la olmaydi, mustaqil bo‘lmagan sud esa hech kimni himoya qilolmaydi. Agar sud mustaqilligiga putur yetsa, “adolat qo‘rg‘oni” shunchaki qulamaydi, u o‘zi bilan butun jamiyatning davlatga, qonunga va haqiqatga ishonchini yo‘qqa chiqaradi. Shu bois, sudyaning hech kimga egilmas mustaqilligi — davlatning sha’ni va millatning ertangi kuniga bo‘lgan eng oliy kafolati.

Sudyaning uchinchi va sharafli tayanchi xalq ishonchidir. Shu ma’noda, “Odil sudlov — 2030” strategiyasi o‘zining teran mazmun-mohiyati bilan milliy sud-huquq tizimiga mutlaqo yangi — “protsessual adolat” tushunchasini olib kirmoqda. Inson uchun uning fikri eshitilgani, hurmat bilan munosabatda bo‘lingani, qaror qabul qiluvchi shaxsning xolisligi va jarayonning shaffofligi barcha hollarda sud qarorining yakuniy mazmuni kabi muhim.

Strategiyada belgilangan sudga murojaat qilishni yengillashtirish, raqamlashtirish, sudning faol ishtiroki tamoyilini kengaytirish, inson huquqlarini ishonchli himoya qilish, sud nazoratini kuchaytirish, sud amaliyotining yagonaligini ta’minlagan holda sudyalarni odil sudlovga daxldor bo‘lmagan vazifalardan ozod etish kabi choralarning har biri shunchaki texnik yoki tashkiliy o‘zgarish emas. Bu islohotlar, avvalo, insonning sudga yetib borishini osonlashtirish, jarayonda qadr-qimmatini ta’minlashga xizmat qiladi. Protsessual adolat shunchaki sud ishini yuritish qoidalarining quruq yig‘indisi bo‘lib qolmay sud bilan xalq o‘rtasidagi ishonch munosabatlarini shakllantiruvchi huquqiy va psixologik muhitdir.

Adolat faqat qonunning so‘zma-so‘z ijrosi emas, balki inson taqdiriga ta’sirini, insonni tinglay olish va to‘g‘ri tushuna bilish mahorati. Jamiyatda ijtimoiy ishonchni mustahkamlashning eng qisqa va ishonchli yo‘li har bir fuqaroning suddan rozi bo‘lib qaytishini ta’minlashdir.

ILM-FAN KELAJAK HOSILIGA AYLANMOQDA



Innovatsiya

Global iqlimning jadal o‘zgarishi, aholi sonining ortishi va jahon oziq-ovqat bozorlarida raqobatning kuchayishi agrar tarmoqni texnologik modernizatsiya qilishni umummilliy strategik maqsadga aylantirmoqda.

Jamoliddin BOBOXONOV,
Qishloq xo‘jaligi vazirligi departamenti direktori





Prezidentimiz tashabbusi va islohotlari jahonning yetakchi ilmiy markazlaridan ilg‘or agrotexnologiyalarni transfer qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunonchi, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va eksport mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda yangi davr boshlandi. Bunday siyosatning eng yorqin namunalaridan biri paxta g‘o‘zapoyasidan olinadigan uglerodli material, ya’ni biochar ishlab chiqarish texnologiyasidir.

Yaqin vaqtlargacha g‘o‘zapoyaga yoqilg‘i sifatida qaralar edi. U dalalarda qolib ketar yoki mavsumiy yoqilg‘i sifatida ishlatilardi. Har ikki holatda ham qimmatli organik resurs qaytarilmas tarzda yo‘qolar, bu jarayon esa issiqxona gazlari chiqindisi va atmosfera havosining ifloslanishiga sabab bo‘layotgandi.

Piroliz qayta ishlash texnologiyasi bu mantiqni tubdan o‘zgartiradi. Kislorod cheklangan sharoitda biomassani termik parchalash orqali o‘simlik qoldiqlari barqaror uglerod matritsasiga — biocharga aylantiriladi. U esa o‘nlab yillar davomida uglerodni tuproq qatlamida ushlab tura oladi va bir vaqtning o‘zida yerning agrofizik xususiyatlarini yaxshilaydi.

2025-yil oktabrdan boshlab Qishloq xo‘jaligi vazirligi Paxta bo‘yicha xalqaro maslahat qo‘mitasi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi hamda xorijlik sheriklar bilan hamkorlikda 782 ta fermer xo‘jaligi maydonlarida pilot loyihani amalga oshirdi. Amaliyot eng muhim jihatni tasdiqladi: texnologiya real dala sharoitida barqaror ish beradi, qishloq xo‘jaligi qoldiqlarini talabgir ekologik hamda iqtisodiy mahsulotga aylantirish imkonini beradi.

Pilot loyihaning miqdoriy ko‘rsatkichlari yo‘nalish imkoniyatini yaqqol namoyon etadi. Har bir gektardan 4-5 tonna g‘o‘zapoya yig‘iladi. Undan taxminan 1,3-1,6 tonna biochar olinadi. Ushbu loyiha doirasida fermerlar tomonidan 706 kub metr biochar tayyorlanib, 2500 gektar yerga sepildi. Biochar tayyorlagan 163 fermerga 307 million so‘m to‘lab berildi.

Ayni paytda Yevropaning ikki yirik kompaniyasi — Alcon Development (Germaniya) va Green Carbon (Shvetsiya) mutaxassislari mamlakatimizda bu boradagi ishlarning to‘g‘ri tashkil etilishiga ko‘maklashmoqda. Shvetsiyalik maslahatchilar mamlakatda bir oydan ortiq vaqtdan buyon faoliyat yuritib, mahalliy mutaxassislar bilan birga sanoat siklining texnik, tashkiliy va amaliy jihatlarini — xomashyo yig‘ishdan tortib, uni qayta ishlash, sifat nazorati, biocharni tuproqqa qo‘shish va uglerod samarasini sertifikatlashgacha bo‘lgan bosqichlarni ishlab chiqmoqda. Sanoat yo‘nalishini ishga tushirish 2027-yilga rejalashtirilgan bo‘lib, 100 ming gektargacha qamrov va keyingi yillarda qayta ishlash hajmini bosqichma-bosqich kengaytirish nazarda tutilgan.

Miqyoslashtirish proyeksiyasi yo‘nalishning sezilarli iqtisodiy salohiyatidan dalolat beradi. 100 ming gektarni qamrab olish va har gektardan kamida 140 dollardan daromad topish mumkin. Umumiy hisob-kitobga ko‘ra, yiliga taxminan 14 million dollar foyda olish mumkin. Keyingi bosqichda 850 ming gektarli qamrovga erishilsa, umumiy daromad ham shunga monand ko‘payadi. Xo‘jaliklar uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri samaradan tashqari, tarmoqning rivojlanishi mamlakatga qo‘shimcha investitsiya, zamonaviy texnologiyalar va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini jalb etish hamda qishloq joylarda ish o‘rinlari ochish imkonini beradi.

Loyiha agrar sohada katta iqtisodiy samara berish bilan birga muhim ekologik ahamiyatga ham ega. O‘simlik qoldiqlarini ochiq havoda yoqishdan voz kechish va kam uglerodli agrotexnologiyalarni joriy etish issiqxona gazlarining kamayishiga sabab bo‘ladi. Bu esa milliy talablar va O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlarini bajarishga katta turtki beradi. Shu tariqa mamlakatning iqlimiy kun tartibini kuchaytirish va “yashil” moliyalashtirish vositalarini jalb etish agrar chiqindilarni xalqaro uglerod bozorlarida tan olinadigan aktivga aylantirish uchun asos yaratiladi.

Biocharning sho‘rlangan tuproqni reabilitatsiya qilishga ko‘maklashish xususiyati alohida strategik ahamiyatga ega. Bu ayni paytda mamlakatimiz dehqonchiligi uchun eng dolzarb muammolardan. O‘zbekiston tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti hamda shvetsiyalik olimlar bilan birga biocharning muhandislik modifikatsiyalari — tuproq tarkibini yaxshilash, namlikni ushlab turish xususiyatini oshirish va tuzning salbiy ta’sirini kamaytirishga qaratilgan maxsus mahsulotlari sho‘rsizlantirish bo‘yicha kompleks dasturlar doirasida ishlab chiqilmoqda.

Tuproqqa kiritilgan biochar uglerodni bog‘lash bilan birga yer sifati va unumdorligini oshiradi. Mineral o‘g‘itlarga ehtiyojni kamaytiradi hamda agrar chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha yangi bozorni shakllantiradi. Bu ekologik va iqtisodiy yo‘nalishlar o‘zaro mos keladigan noyob holat. Chiqindi daromadga aylanadi, tuproq tiklanadi, mamlakat esa “yashil” iqtisodiyotni qurish uchun ta’sirchan vositaga ega bo‘ladi. Bu yerda har bir texnologiya transferi ortida muayyan dalalar, xo‘jaliklar va baholab bo‘ladigan natija turadi — fan aynan shu tarzda kelajak hosiliga aylanadi.

Mulohaza

TARIXIY VA MADANIY MEROSINI QADRLAGAN MILLAT QUDRATLIDIR





Malika QODIRXONOVA,
senator

Har bir millatning o‘ziga xos madaniy merosi, boy tarixi bor. Meros deganda, faqatgina o‘tmishdan qolgan imorat, qadimiy qo‘lyozma yoki muzeylarda saqlanayotgan nodir ashyolar yig‘indisi tushunilmaydi, albatta. Aksincha, u o‘sha xalqning o‘tmishi, tafakkuri va dunyoqarashi mujassam bo‘lgan tirik ma’naviy xazina. Shu xazina millatning kim ekanini dunyoga ko‘rsatuvchi tarixiy manbadir.


Shu ma’noda, Prezidentimizga madaniy merosni asrab-avaylash, muzeylar faoliyatini rivojlantirish va yurtimizning boy madaniyatini xalqaro maydonda keng targ‘ib qilish bo‘yicha taqdim etilgan takliflar sohadagi ustuvor vazifalarni belgilash bilan birga milliy madaniy siyosat mazmunan yangi bosqichga ko‘tarilayotganidan dalolatdir.

Madaniy merosga munosabatning o‘zi tubdan yangilanmoqda. Endi tarixiy yodgorliklarni asrab qolish bilan birga ularni chuqur ilmiy o‘rganish va raqamlashtirish, iqtisodiy hamda turistik salohiyatidan oqilona foydalanish, xalqaro standartlar asosida muhofaza qilish, zamonaviy yondashuv hamda mutaxassisliklarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Bu yondashuvning eng muhim ko‘rinishlaridan biri Toshkent modernizm me’morligi bilan bog‘liq. Ta’kidlash kerakki, UNESCO jahon merosi qo‘mitasi 48-sessiyasida “Toshkentning modernizm me’morligi: Markaziy Osiyo zamonaviyligi va an’analari” milliy nominatsiyasi Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilishi mamlakatimiz uchun tarixiy voqea bo‘ldi. Nominatsiyaga poytaxtdagi 10 ta muhim obyekt kiritildi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo va MDHda XX asr modernizmi me’moriy merosi UNESCOning mazkur ro‘yxatiga kiritilgan birinchi davlat bo‘ldi.

Odatda meros deganda, ko‘z oldimizga qadimiy shaharlar, ming yillik obidalar, xumdonlar, madrasalar va maqbaralar keladi. Ammo tarix faqat asrlar qa’ridan emas, kechagi kundan ham iborat. XX asr me’morligi ham muayyan davrning estetik qarashlari, muhandislik tafakkuri va ijtimoiy hayoti haqida hikoya qiladi. Shu bois, Toshkent modernizmini muhofaza qilish poytaxtimizning shaharsozlik tarixini asrash demakdir.



“Quyosh” geliomajmuasi jahon merosi obyekti tarkibida saqlab qolinishi yo‘lida faol siyosiy-diplomatik ishlar qilingani ham O‘zbekiston o‘z madaniy va ilmiy merosi bo‘yicha xalqaro maydonda qat’iy pozitsiyaga ega ekanini ko‘rsatadi.

Bugun taraqqiyot bilan tarixni qanday uyg‘unlashtirish ustida ko‘plab mamlakatlar bosh qotirmoqda. Negaki, bu bevosita turizm sohasi rivojiga ham xizmat qiladi.

Qadimiy Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlar bir vaqtning o‘zida ham tirik shahar, ham ulkan tarixiy meros makonidir. Toshkent esa jadal qurilish, transport va infratuzilma yangilanishi jarayonini boshidan kechirmoqda. Bunday sharoitda har qanday yangi bino, yo‘l yoki infratuzilma loyihasi tarixiy muhitga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, “Heritage Impact Assessment” merosga ta’sirni baholash tizimi joriy etilishi strategik ahamiyatga ega. Mazkur tizimning mohiyati shundan iboratki, biror loyiha amalga oshirilishidan oldin uning tarixiy muhitga qanday ta’sir ko‘rsatishi atroflicha baholanadi. Zero, tarixiy muhitni yo‘qotishning oqibatini keyinchalik pul bilan tiklab bo‘lmaydi. Biror obidaning o‘zi saqlanib qolishi mumkin, ammo uning atrofidagi tarixiy muhit buzilsa, yodgorlikning asl ma’nosi va vizual yaxlitligi ham zaiflashadi.

> **Madaniy meros sohasidagi barcha tashabbuslarni bir nuqtada birlashtiruvchi jihat bor. U ham bo‘lsa tizimlilik. UNESCO bilan hamkorlikni kuchaytirish, Milliy komissiya kotibiyati vakolatlarini kengaytirish, ijodiy va ta’lim beruvchi shaharlar tarmoqlari, assotsiatsiyalashgan maktablar, UNESCO kafedralari, klublar va global geoparklar tarmog‘idagi ishtirokni muvofiqlashtirish O‘zbekistonning xalqaro madaniy makondagi ishtirokini institutsional jihatdan kuchaytiradi.**

Madaniy merosni muhofaza qilishda yana bir katta o‘zgarish raqamli texnologiyalar keng joriy etilishidir. Yagona raqamli platforma, obyektlarning raqamli egizaklari, “Heritage Open Data” tizimi va madaniy meros bo‘yicha situatsion markaz tashkil etish takliflari sohani an’anaviy hisob-kitob va qog‘ozbozlikdan zamonaviy boshqaruv modeliga olib chiqishi mumkin.

Bu borada, ayniqsa, IoT sensorlar, sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari, videotahlil va sun’iy intellekt asosida monitoring olib borish imkoniyati muhim. Chunki minglab obyektlarni faqat inson ko‘zi bilan muntazam kuzatib borishning imkoni yo‘q.

Agar 2030-yilga qadar barcha madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish rejasi amalga oshsa, mamlakat tarixining ulkan elektron xaritasi vujudga keladi. Bu ma’lumotlar nafaqat muhofaza uchun, balki ilmiy tadqiqot, ta’lim, turizm va xalqaro hamkorlik uchun ham qimmatli resursga aylanadi.

Madaniy merosning iqtisodiy qiymati haqida xolis mulohaza yuritish kerak. Bugun turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biriga aylanib borayotgan bir sharoitda tarixiy obyektlar sayyohlik salohiyatining asosiy manbalaridan hisoblanadi.

Biroq merosni iqtisodiy resursga aylantirish bilan uni oddiy tijorat obyektiga aylantirib qo‘yish o‘rtasida katta farq bor.

So‘nggi yillarda madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish uchun davlat budjetidan 466,4 milliard so‘m yo‘naltirilgani, 305 ta loyiha-smeta hujjati tayyorlangani, 55 ta obyektda ishlar yakunlangani va 152 ta obyektda ishlar davom etayotgani sohadagi amaliy sa’y-harakatlar ko‘lamini ko‘rsatadi.

8183 ta obyekt bo‘yicha kadastr hujjatlari shakllantirilishi ham muhim institutsional qadamdir. Chunki merosni samarali boshqarish, avvalo, uning aniq hisobini yuritishdan boshlanadi.

Yodgorliklarni qisqa muddatli ijaraga berish orqali 4187 ta tadbirkorlik subyekti jalb etilgani va sohaviy jamg‘armaga 27,9 milliard so‘m yo‘naltirilgani esa davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan foydalanishga intilishni ko‘rsatadi. Ammo bu yerda bir tamoyil o‘zgarmasligi kerak: tadbirkorlik madaniy merosga xizmat qilishi lozim, meros tadbirkorlikka emas.

Har qanday strategiya, raqamli platforma yoki zamonaviy texnologiyaning samarasi oxir-oqibat inson omiliga, aniqroq aytganda, soha mutaxassisiga borib taqaladi. Shu bois, Buxoroda ixtisoslashtirilgan restavratsiya oliy maktabini ochish, Arxeologiya institutining hududiy filiallarini rivojlantirish, restavratorlarni litsenziyalash tizimini joriy etish kabi takliflar malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Zero, qadimiy obidani ta’mirlash oddiy qurilishdan keskin farq qiladi. Restavrator tarixni, materialshunoslikni, me’morlikni, arxeologiyani va hatto o‘sha davrning estetik tafakkurini bilishi hamda tushunishi kerak.

Toshkent mozaika maktabini saqlashga qaratilgan ixtisoslashtirilgan mozaika markazi tashkil etish taklifi ham shu ma’noda istiqbollidir. U nafaqat mavjud merosni asrash, balki yangi avlod ustalarini tarbiyalash uchun maktab vazifasini bajaradi.

Madaniy meros sohasidagi barcha tashabbuslarni bir nuqtada birlashtiruvchi jihat bor. U ham bo‘lsa tizimlilik. UNESCO bilan hamkorlikni kuchaytirish, Milliy komissiya kotibiyati vakolatlarini kengaytirish, ijodiy va ta’lim beruvchi shaharlar tarmoqlari, assotsiatsiyalashgan maktablar, UNESCO kafedralari, klublar va global geoparklar tarmog‘idagi ishtirokni muvofiqlashtirish O‘zbekistonning xalqaro madaniy makondagi ishtirokini institutsional jihatdan kuchaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, 2027–2035-yillarga mo‘ljallangan Madaniy merosni rivojlantirish strategiyasi alohida ahamiyatga ega.

Unda raqamlashtirish, moddiy va nomoddiy merosni muhofaza qilish, madaniy boyliklarni repatriatsiya qilish, tabiiy merosni asrash va restavratsiya sohasini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarning bir tizimga birlashtirilayotgani sohaning kelajagi porloq ekanidan darakdir.

Madaniy merosni asrash o‘tmishni shunchaki saqlab qolish emas, balki uni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirib, kelajak avlodlarga munosib tarzda yetkazishdir. Bu boradagi yangi yondashuvlar O‘zbekistonning boy tarixiy va madaniy salohiyatini asrash barobarida uni ilmiy, ma’rifiy va turistik jihatdan yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Zero, tarixiy va madaniy merosini qadrlagan, uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylagan millat qudratlidir.

1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni

MUALLIM — KAMOLOT KO‘ZGUSI



Xolmurod SALIMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Maktabda o‘qib yurgan paytlar ustozlarimiz biz, o‘quvchilardan birma-bir “Kelajakda kim bo‘lasan?” deb so‘rardi. Bu savolga sinfimizning aksariyat o‘g‘il-qizlari qatori men ham “O‘qituvchi bo‘laman”, deb javob berganman. Bunga muallimlarga havas qilganim, ehtimol, o‘sha davrlarda ularning hurmati ancha yuqori ekani sabab bo‘lgandir.

Oradan yillar o‘tdi, ishtiyoq so‘nmadi, fikrim o‘zgarmadi. Tanlovimni ota-onam ham qo‘llab-quvvatladi. O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi bo‘lishni orzu qilib, oliy o‘quv yurtiga kirishga tayyorlana boshladim. Ayni yo‘nalish bo‘yicha muayyan muddat tayyorlov kursida ham o‘qidim.

Kechagidek yodimda, maktabni bitirib, hujjatlarimni Samarqand davlat universitetining o‘zim qiziqqan fakultetiga topshirish uchun navbatda turibman. Navbatim yaqinlashmoqda, qarasam, yon tomondagi stol ustidagi qog‘ozga qizil rangda “Jurnalistika” deb yozib qo‘yilgan. Ammo u joyda hech kim yo‘q. Shu yozuv va ta’lim yo‘nalishi ohanrabodek o‘ziga tortgani tufayli o‘sha tomonga tez-tez qarab qo‘yaman, kimdir kelib qoladimi deb.

Qisqasi, navbatda mendan oldin bitta qiz qoldi. Ayni mahal shu stol oldiga bir juvon kelib, “Hurmatli abituriyentlar, bu yildan universitetimizda jurnalistika bo‘limi ochildi. Qiziquvchilar hujjatlarini topshirishi mumkin”, dedi.

Ikkilanib qoldim. O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi bo‘lish o‘zim va uydagilar xohishi edi. Biroq fikrim o‘zgaryapti. Miyamdagi o‘yni amalga oshirish payidaman. Buni ota-onamga bildirish va rozilik olish uchun qo‘ng‘iroq qiladigan qo‘l telefoni yo‘q u paytlari. Vaqt qisqa, qaror qabul qilish lozim. Shu lahza tavakkal qilib, hujjatlarimni jurnalistika bo‘limiga topshirdim. Yangi ochilgan yo‘nalishning ilk abituriyenti bo‘ldim. Xullas, ijodiy imtihon va testdan yetarlicha ball to‘plab, talabalar safiga qo‘shildim.

O‘qib yurgan paytlarim ijara uyda turib ta’lim olish, yashash ancha qiyin edi. Shaharda uch-to‘rt yil yurib, o‘zimni tutib olgach, ota-onamdan pul so‘rashga tortinadigan bo‘ldim. Yashirmayman, o‘sha yillari oilamiz iqtisodi ham yaxshi emasdi.

Bir kuni Samarqand shahridagi 53-maktabda ish borligidan xabar topdim. Ertasigayoq shu dargoh direktoriga uchrashdim, u kishi o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi yetishmayotganini aytib, yosh va tajribasiz bo‘lishimga qaramay, bir stavka ish taklif qildi. Xursand bo‘ldim. Ammo universitetdagi darslarni o‘ylab, 8 soat dars menga kifoya qilishini aytdim. Kelishdik, shu tariqa talabalik davridayoq bolalik orzum ushalib, o‘qituvchi sifatida ish boshlaganman.

Faoliyatim davomida maktab o‘qituvchilari xonasida oylik maosh kamligi haqida ba’zi muallimlarning norozi kayfiyatdagi gaplarini eshitganman. Haqiqatan, ayni masala va jamiyatda kasb obro‘si tushib borayotgani kabi omillar tufayli ko‘plab (asosan erkaklar) pedagoglar maktabni tashlab, boshqa ishlarga o‘tib ketgandi. Ular o‘rniga olingan muallimlarning aksari o‘z fani bo‘yicha mutaxassis emasdi. Bu esa ta’lim sifati hamda muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatardi.

O‘qituvchilarni g‘o‘za parvarishi va paxta terimiga, turli bo‘lar-bo‘lmas yig‘ilishu majlislarga, hatto ko‘cha tozalash kabi ishlarga jalb etish kuchaygani ularning bor obro‘sini ham yo‘qqa chiqardi. Bular — men kabi ko‘pchilik guvoh bo‘lgan yaqin yillardagi holatlar. Yaxshiyamki, ular bugun o‘tmishga aylandi.

> **O‘qituvchilik — oddiy kasb emas, balki millatning kelajagini, uning ma’naviyati va intellektual salohiyatini shakllantiradigan buyuk missiya. Boshqacha aytganda, katta fidoyilik va sabr-toqat talab qiladigan, sharafli va mas’uliyatli vazifa.**

Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatida faoliyat boshlashi bilan barcha soha, jumladan, maktab ta’limi ham katta islohotlarga yuz tutdi. Eng muhimi, o‘qituvchilar yelkasiga oftob tegdi. Ular o‘z ishiga qaytdi. Pedagoglar sha’ni hamda qadr-qimmatini himoya qilish, kasbiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish davlatning ustuvor vazifasi sifatida mustahkamlandi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonunlar, Prezidentimizning sohaga doir qator farmon va qarorlari bugun soha rivojiga huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi boshqarma boshlig‘i Azamat Kamolovning ma’lum qilishicha, hozirgi kunda maktab ta’limida darsliklarni yangilash, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini kuchaytirish hamda mezonlarga asoslangan baholash tizimini bosqichma-bosqich kengaytirishga qaratilgan ishlar davom etmoqda. Xususan, “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” amaliyotlari orqali o‘qituvchilarning zamonaviy metodikalarni egallashi qo‘llab-quvvatlanayotir.

Xalqaro tajriba va reytinglardan kelib chiqqan holda sohada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar umumiy o‘rta ta’lim tizimida pedagog kadrlar tarkibi sifat jihatidan yaxshilanib borishiga turtki berdi. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2016-yilda maktablardagi oliy toifali o‘qituvchilar 15 ming 807 (4,1 foiz)ni tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kunda 73 ming 217 ming (13,7 foiz)ga yetgan. Avvallari yurtimizda “xalqaro o‘qituvchi” maqomiga ega mahalliy pedagog bo‘lmagan. Ayni kunda esa bunday maqomga ega kasb egalari, shuningdek, B2 va undan yuqori darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega pedagoglar safi tobora kengayib bormoqda.

Islohotlar doirasida muallimlarning mehnat staji, ilmiy faoliyati, toifasiga qarab ish haqiga qo‘shimcha va ustamalar qo‘shish tizimi joriy etildi. Ayni kunda mamlakatimizda 24 ming 289 pedagog o‘n milliondan yigirma million so‘mgacha maosh olmoqda.

Bugungi kunda o‘qituvchilarning 310 ming nafari malaka toifasiga ega. 70 mingdan ko‘prog‘i oliy, 110 ming 432 nafari birinchi, 129 mingdan ziyodi ikkinchi toifali pedagoglardir. Albatta, bu raqamlar kundan kunga o‘zgarib bormoqda, boshqacha aytganda, toifa olayotgan yoki maqomi o‘sayotgan muallimlar soni ortmoqda.

— Bolaga ta’lim-tarbiya beradigan o‘qituvchining o‘zi, avvalo, har jihatdan yetuk bo‘lishi kerak, — deydi Oltiariq tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab direktori, “O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi” faxriy unvoni sohibi Hamidjon Rahimov. — Ularning bilim va malakasini, dars o‘tish salohiyatini sinovdan o‘tkazadigan, baholaydigan, toifa beradigan tizim amaliyotga tatbiq etilgani yuksak samaralarini bermoqda. Bu tartibning oylik maosh va faoliyatga ijobiy ta’sir qilishi hamkasblarimizni o‘z ustida ko‘proq ishlashga chorlaydi, ruhlantiradi. Bu yaxshi. Nega?! Chunki ilmi kuchli o‘qituvchilar safi qancha kengaysa, bilimi mukammal o‘quvchilar shuncha ko‘payadi.

Maktabda qaysidir o‘g‘il-qiz faol va iste’dodli, kimdir kamgap, yana kimdir qobiliyatini namoyon qilishga tortinadi. Yaxshi o‘qituvchi esa har bir bolaning ichki imkoniyatini ko‘ra oladi, bir qarashda sezilmaydigan xislatini kashf etadi, uni rivojlantirishga, bilimini oshirishga harakat qiladi. “Sham o‘zini kuydirib, boshqalarga nur taratgani kabi ustoz ham o‘z umrini fido qilib, shogirdlariga bilim nurini sochadi”, deydi Jaloliddin Rumiy.

O‘qituvchining “Sen uddalaysan!”, “Men senga ishonaman!”, “Sendan yaxshi natija kutayapman!” degan oddiy so‘zlari o‘quvchida o‘ziga katta ishonch uyg‘otadi. Yillar o‘tib, u katta yutuqlarga erishganda, uning xotirasida ana shu so‘zlarni aytgan ustozi chehrasi gavdalanadi. Bularni hayotim misolida ko‘raman. Aytish mumkinki, muallim mehnatini oddiy faoliyat bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Uning ish natijasi bir kun, bir oy yoki bir yilda emas, yillar davomida namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchilik — oddiy kasb emas, balki millatning kelajagini, uning ma’naviyati va intellektual salohiyatini shakllantiradigan buyuk missiya. Boshqacha aytganda, katta fidoyilik va sabr-toqat talab qiladigan, sharafli va mas’uliyatli vazifa.


Jurnalist ham, muhandis ham, shifokor ham, davlat arbobi ham bir vaqtlar o‘qituvchi qo‘lida ta’lim olgan. Shu ma’noda, muallimning mehnati bir inson taqdiri bilan cheklanib qolmay, butun jamiyat kelajagiga ta’sir qilishini unutmasligimiz lozim.

Bugun zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda. Ta’limda yangicha o‘qitish usullari va innovatsion yondashuvlardan, sun’iy intellekt imkoniyatlari, raqamli vositalardan keng foydalanilmoqda. Bu esa o‘qitish jarayonini yengillashtirib, o‘quvchilarning tezkor bilim va turli axborotlar olishi uchun imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq hech narsa mehribon, bilimdon va kasbiga sadoqatli o‘qituvchining o‘rnini, hayotiy tajribasi va shogird qalbiga yo‘l topish qobiliyatini to‘liq bosa olmaydi. Chunki ta’lim markazida baribir inson, uning qalbi va tafakkuri turadi.

— O‘qituvchi qadrini yuksaltirish faqat moddiy qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanmasligi kerak. Unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, mehnatini qadrlash, jamiyatda pedagoglar nufuzini oshirish muhim, — deydi Zangiota tumanidagi “Gulbog‘” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, sobiq pedagog Saodat Fathiddinova. — Zero, ota-onalarning ustoz bilan tez-tez muloqoti va hamkorligi, o‘quvchilar odobi, ta’limga e’tibor muallim obro‘si hamda mehnati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchilikni jamiyatimizdagi eng muhim va obro‘li kasbga aylantirish bo‘yicha ishlar izchil davom etmoqda. Muallimlar salomatligini tiklash, har jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida imkoniyat va imtiyozlar yaratib berilayotir. Tegishli tartibga ko‘ra, o‘n besh yil stajga ega bo‘lgan oliy toifali pedagoglarga ipoteka krediti boshlang‘ich badalining 25 foizi qoplab berilishi, davlat oliygohlariga qabul qilingan muallimlar farzandlarining shartnoma summasiga 30 foiz chegirma joriy etilgani shular jumlasidandir. Bu ishlar yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimiga, ayniqsa, fidoyi kasb egalariga e’tibor butunlay o‘zgarganidan dalolat beradi.

Albatta, ushbu imkoniyatlar mazkur sharafli kasb egalariga kuch-g‘ayrat bag‘ishlash barobarida ularni yangidan yangi marralar sari ruhlantirmoqda. O‘z ustida ko‘proq ishlashga, tinmay izlanishga chorlamoqda. Jamiyatda o‘qituvchilik mavqeini oshirmoqda. Zero, “Ustoz — otangdek ulug‘” naqli bejiz paydo bo‘lmagan.



O‘ZBEK ALIFBOSI ISLOHOTI

Alifbo haqida gap ketganda, masalani faqat harflar shakli yoki soni bilan bog‘lash to‘g‘ri emas. Alifbo, avvalo, tilning fonetik tabiatini yozuvda aks ettiradigan, ta’lim jarayonini tartibga soladigan, ilmiy va madaniy merosni avloddan avlodga yetkazadigan hamda bugungi raqamli dunyoda tilning texnologik imkoniyatlarini belgilaydigan muhim tizimdir.



Saodat MUHAMEDOVA, filologiya fanlari doktori, professor

Shu ma’noda, alifboni takomillashtirish masalasi bir necha harfni almashtirish yoki ayrim grafik belgilarni o‘zgartirishdan iborat oddiy texnik jarayon emas. Bu o‘zbek tilining kelgusi taraqqiyoti, ta’limdagi, ilm-fandagi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridagi va xalqaro axborot makonidagi mavqei bilan bog‘liq strategik masaladir.

Bugun jamoatchilik orasida lotin yozuvidagi o‘zbek alifbosini takomillashtirishga oid turli fikrlar bildirilayotgani tabiiy. Chunki yozuv masalasi millatning tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari va milliy o‘zligi bilan chambarchas bog‘liq. Har qanday islohot singari alifbo masalasi ham ochiq muhokama, ilmiy bahs va turli qarashlarni talab qiladi.

Biroq bunday muhokamalarda bir jihatni unutmaslik zarur: taklif etilayotgan o‘zgarishlar kecha yoki bugun paydo bo‘lgan tasodifiy g‘oya emas. Ularning zamirida ko‘p yillik ilmiy izlanishlar, mutaxassislar muhokamalari, jamoatchilik fikrini o‘rganish, ta’lim amaliyoti va zamonaviy axborot texnologiyalari talablarini tahlil qilish jarayoni mavjud.

Qariyb o‘n yillik izlanish

So‘nggi o‘n yillik Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti uchun ham, o‘zbek alifbosi va imlosini takomillashtirish jarayoni uchun ham muhim bosqich bo‘ldi. Universitetni tashkil etish to‘g‘risidagi farmonda o‘zbek tilining asl tabiati va xususiyatlarini to‘la aks ettiradigan akademik va o‘quv grammatikalarini yaratish, tovushlar tizimi va ularning yozuvda aks etishini takomillashtirish, amaldagi imlo qoidalarini mukammallashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar tayyorlash kabi muhim vazifalar belgilangan edi. Ana shu vazifalar ijrosi doirasida 2016-yilda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash bo‘yicha ishchi guruh tuzildi. Uning tarkibiga universitet professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlari, taniqli tilshunos olimlar, ta’lim tizimi vakillari va boshqa mutaxassislar jalb qilindi.

Keyingi yillarda alifbo masalasi faqat ilmiy doira ichida emas, balki keng jamoatchilik ishtirokida ham muhokama qilindi. Bu jihat alohida ahamiyatga ega. Chunki yozuvdan faqat tilshunos foydalanmaydi. Undan o‘quvchi ham, o‘qituvchi ham, yozuvchi va jurnalist ham, davlat xizmatchisi va noshir ham, dasturchi va tarjimon ham foydalanadi. Demak, alifbo barcha qatlamlar ehtiyojini hisobga oladigan universal tizim bo‘lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, ishchi guruh faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri turli manbalardan kelib tushgan fikr va takliflarni yig‘ish, tasniflash, ilmiy mezonlar asosida tahlil qilish va umumlashtirishdan iborat bo‘ldi. 2016-yilda ijtimoiy tarmoqda “O‘zbek tili jonkuyarlari” guruhi tashkil etilishi ham bu jarayonning muhim qismiga aylandi. Mazkur maydon alifbo va imlo masalalariga doir turli qarashlarni yig‘ish, muhokama qilish va saralash imkonini berdi. Ishchi guruhga kelib tushgan takliflarning ko‘pchiligi ochiq muhokama qilindi.

Bundan tashqari, turli yig‘ilishlar, ilmiy konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar, davlat organlariga yuborilgan murojaatlar va jamoatchilik muhokamalarida bildirilgan fikrlar ham o‘rganildi. Demak, bugungi alifbo takomillashuvi bilan bog‘liq qarashlarni biror shaxs yoki bir guruh olimlarning subyektiv xohishi sifatida baholash ilmiy haqiqatga mos kelmaydi. Bu ko‘p yillar davomida to‘plangan tajriba, muhokama va tahlillarning umumlashgan natijasidir.

Muammo qayerda edi?

Ilmiy izlanishlar davomida amaldagi lotin alifbosining qator jihatlari alohida tahlil qilindi. Ayniqsa, O‘, G‘, Sh, Ch va ng ning grafik ifodasi bilan bog‘liq masalalar ko‘p yillik muhokamalar markazida bo‘ldi. Avvalo, O‘ va G‘ harflari masalasiga e’tibor qarataylik.

Amaliyotda O‘ va G‘ harflarini yozishda turli belgilar qo‘llanib kelingan. Bir foydalanuvchi bir belgidan, ikkinchisi boshqa belgidan, uchinchisi esa klaviaturasida mavjud boshqa variantdan foydalanishi mumkin edi. Natijada bitta harfning turli grafik ko‘rinishlari paydo bo‘ldi. Bu masala faqat estetik muammo emas. Turli grafik belgilar elektron qidiruv tizimlarida, ma’lumotlar bazalarida, avtomatik saralashda, matnlarni qayta ishlashda va raqamli platformalarda muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. Masalan, inson ko‘zi uchun bir-biriga yaqin ko‘ringan ikki belgi kompyuter uchun mutlaqo boshqa kodga ega bo‘lishi mumkin. Natijada bir xil so‘z turli shakllarda yozilganda elektron tizim uni yagona birlik sifatida qabul qilmasligi ehtimoli yuzaga keladi. Bugungi raqamli davrda bunday muammo kichik texnik noqulaylik sifatida qaralmasligi kerak. Chunki til tobora ko‘proq elektron muhitda yashamoqda.

Sh va Ch: ikki harfmi yoki bir tovushmi?

Amaldagi alifbodagi yana bir muhim masala Sh va Ch harfiy birikmalaridir. O‘zbek tilida bu birikmalar tegishli tovushlarni ifodalashi, biroq grafik jihatdan ikki harf orqali yozilishi alifbo va tovush tizimi o‘rtasidagi munosabatni murakkablashtiradi. Bu holatni, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish muhim. Birinchi sinf o‘quvchisiga savod o‘rgatish jarayonida odatda tovush va harf munosabati sodda va izchil tushuntiriladi. Bola muayyan tovushning muayyan grafik belgisi mavjudligini anglaydi. Keyinchalik esa Sh va Ch kabi birikmalar bilan to‘qnash keladi. Bu esa savod chiqarish metodikasida qo‘shimcha tushuntirishni talab qiladi. Masalan, bola bir tovushni ifodalovchi birlikning ikki grafik belgidan tashkil topganini o‘zlashtirishi kerak bo‘ladi. Tilshunos uchun bu oddiy nazariy hodisa bo‘lishi mumkin. Ammo savod chiqarayotgan bola uchun u qo‘shimcha kognitiv yuklama demakdir. Shuning uchun alifbo masalasini faqat katta yoshdagi savodli inson nuqtayi nazaridan emas, birinchi sinf o‘quvchisi ko‘zi bilan ham ko‘rish zarur. Bu jihat alifbo islohotining ta’limiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilidagi ng tovushining yozuvda ifodalanishi ham uzoq yillardan buyon muhokama qilib kelinayotgan masalalardan biridir. Mazkur tovushning grafik ifodasi, uning alifbodagi maqomi, bosh harf shakli va boshlang‘ich ta’limda o‘rgatilishi bilan bog‘liq masalalar alohida ilmiy va metodik yondashuvni talab qiladi. Bu masalaning yana bir tomoni raqamli texnologiyalar bilan ham bog‘liqdir. Bugungi kunda til faqat qog‘ozdagi matn emas. Elektron lug‘atlar, milliy korpuslar, qidiruv tizimlari, nutqni avtomatik tanish, matnni avtomatik tahlil qilish, mashina tarjimasi va sun’iy intellekt tizimlarida ham til birliklarining aniq grafik va kodlash tizimiga ega bo‘lishi muhim. Shu sababli alifboni takomillashtirish masalasini kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalardan ajratib ko‘rish mumkin emas.

* * *

Bugungi kunda dunyoda tilning raqamli mavjudligi uning taraqqiyot ko‘rsatkichlaridan biriga aylanmoqda. Elektron lug‘at, milliy korpus, qidiruv tizimi, elektron hukumat, sun’iy intellekt, avtomatik tarjima, nutqni tanish, ovozli yordamchilar, ta’lim platformalari — bularning barchasi tilning texnologik jihatdan standartlashtirilgan yozuv tizimini talab qiladi. Shuning uchun bugungi alifbo kechagi alifbodan farq qiladi. Kechagi yozuv, avvalo, kitob, gazeta va qo‘lyozma uchun xizmat qilgan bo‘lsa, bugungi yozuv kompyuter, smartfon, internet va sun’iy intellekt bilan ham “muloqot qilishi” kerak. Shu ma’noda, alifboning har bir belgisi texnologik obyekt hamdir. Har bir harfning kodi, uning boshqa belgilar bilan munosabati, qidiruv tizimlarida qanday tan olinishi, alifbo tartibida qanday saralanishi, ma’lumotlar bazasida qanday saqlanishi — bularning barchasi yozuv tizimining zamonaviyligini belgilaydi. Demak, alifboni takomillashtirish tilni raqamlashtirish jarayonining ham muhim tarkibiy qismidir.

Yangi grafik yechimlar

Alifbo islohoti haqida fikr yuritishda yana bir masalaga alohida e’tibor qaratish lozim. Ba’zan taklif qilinayotgan ayrim grafik shakllar o‘zbek yozuvi an’analariga begona degan qarashlar bildiriladi. Biroq tarixga murojaat qiladigan bo‘lsak, bunday xulosaga kelish uchun yetarli asos yo‘qligini ko‘ramiz. 1929-yilda qabul qilingan lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida ham o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini aniqroq ifodalash maqsadida maxsus grafik belgilar qo‘llangan. Xususan, Ş ş harfi “sh” tovushini ifodalash uchun ishlatilgan. Demak, bugungi kunda muhokama qilinayotgan ayrim grafik yechimlar o‘zbek yozuvi tarixida mutlaqo begona hodisa emas. Aksincha, ular turkiy xalqlarning lotin yozuvlari tajribasi va o‘zbek yozuvining tarixiy an’analariga muayyan darajada bog‘liq. Bu yerda muhim metodologik xulosa shuki, yozuv islohoti tarixni inkor etmasligi, balki tarixiy tajribadan foydalanib, zamonaviy ehtiyojlarga javob berishi kerak. Jadidlar davrida boshlangan yozuv islohotlarining asosiy maqsadlaridan biri ham tilning o‘ziga xos xususiyatlarini imkon qadar aniq va qulay ifodalash edi. Shunday ekan, bugungi islohotni tarixiy an’analardan uzilish sifatida emas, balki tarixiy tajriba va zamonaviy texnologik ehtiyojlar uyg‘unlashuvi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

* * *

O‘zbek alifbosini takomillashtirish masalasi keyingi yillarda davlat tiliga oid hujjatlarda ham izchil davom ettirildi. Davlat tilining nufuzi va mavqeini oshirishga, o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishga doir hujjatlarda alifbo va imloni takomillashtirish masalasiga muhim vazifa sifatida qaraldi. Bu esa alifbo islohotining faqat tor doiradagi lingvistik masala emasligini ko‘rsatadi. U davlat tilini rivojlantirish siyosatining tarkibiy qismidir. 2023-yilda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi o‘tkazilgani masalaning ilmiy jamoatchilik uchun dolzarbligini ko‘rsatadi. Konferensiyada olimlar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, davlat tili masalalari bo‘yicha mutaxassislar va OAV vakillari ishtirok etgan. Demak, alifbo masalasi yillar davomida turli bosqichlardan o‘tib, ilmiy va jamoatchilik muhokamasi asosida takomillashib bordi.

Bosh mezon — bosqichma-bosqichlik

Yozuv masalasida yana bir tamoyilni unutmaslik kerak: har qanday o‘zgarish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Chunki alifbo faqat darsliklarda mavjud emas. U davlat hujjatlarida, blankalarda, peshlavhalarda, ko‘rsatkichlarda, elektron ma’lumotlar bazalarida, dasturiy ta’minotda, kitoblarda, lug‘atlarda va millionlab fuqarolarning kundalik yozishmalarida qo‘llanadi. Shuning uchun yangi grafik tizim joriy etilishi jamiyat hayotini izdan chiqarmasligi, iqtisodiy jihatdan ortiqcha yuk tug‘dirmasligi va ta’lim tizimida keskin uzilishlarga sabab bo‘lmasligi kerak. Ayniqsa, darsliklarni tabiiy yangilash jarayoni bilan uyg‘unlashtirish muhim. Yangi darsliklar navbatdagi nashrlarda yangi grafik me’yorlar asosida bosqichma-bosqich chop etilishi mumkin. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy jihatdan maqbul, balki pedagogik nuqtayi nazardan ham qulaydir.

Qulaylik, avvalo, bolalarimiz uchun

Alifbo islohotiga munosabat bildirayotganda eng muhim savollardan biri quyidagicha bo‘lishi kerak: biz bugungi kattalarning odatini saqlab qolish yoki ertangi kun bolalariga qulay yozuv tizimini yaratish haqida o‘ylayapmizmi? Bu ikki masala o‘rtasida katta farq bor. Bugun biz uchun odatiy bo‘lib qolgan grafik shakl ertaga maktabga boradigan bola uchun eng qulay variant bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun alifbo masalasini faqat “men bunga ko‘nikib qolganman” yoki “bu harf menga yoqadi” kabi subyektiv mezonlar asosida baholab bo‘lmaydi. Alifbo, eng avvalo, bola uchun o‘rganishga qulay, o‘qituvchi uchun tushuntirishga sodda, til uchun fonetik jihatdan asosli, jamiyat uchun foydalanishga qulay va texnologiyalar uchun qayta ishlashga mos bo‘lishi kerak. Ana shunday ko‘p mezonli yondashuvgina alifbo islohotining haqiqiy mohiyatini ochib beradi.

Tilshunoslik va texnologiya chorrahasida

Bugun o‘zbek tili oldida yangi vazifalar turibdi. O‘zbek tilining milliy korpusini rivojlantirish, elektron lug‘atlarni takomillashtirish, mashina tarjimasi sifatini oshirish, sun’iy intellekt tizimlarini o‘zbek tiliga moslashtirish, ovozli texnologiyalarni rivojlantirish, o‘zbek tilidagi raqamli kontent hajmini kengaytirish — bularning barchasi yozuv tizimining texnik jihatdan puxta bo‘lishini talab qiladi. Shuning uchun alifbo islohoti masalasini kelajakdagi texnologiyalarni hisobga olmasdan hal qilib bo‘lmaydi. Bugun yaratilayotgan alifbo faqat bugungi kompyuter dasturlari uchun emas, ertaga yaratiladigan dasturlar uchun ham xizmat qilishi kerak. Bugungi bola esa kelajakda o‘zbek tilida sun’iy intellekt bilan muloqot qiladi, elektron ilmiy bazalardan foydalanadi, raqamli darsliklarni o‘qiydi, xalqaro axborot makoniga chiqadi. Demak, bugungi qarorlarimiz uning ertangi imkoniyatlariga ta’sir qiladi.

O‘zbek alifbosini takomillashtirish masalasi qariyb o‘n yil davomida qilingan ilmiy izlanishlar, turli darajadagi muhokamalar, mutaxassislar va jamoatchilik fikrlarini o‘rganish, ta’lim amaliyoti hamda raqamli texnologiyalar talablarini hisobga olish natijasida shakllangan jarayondir. Bu jarayon davomida amaldagi alifboning O‘, G‘, Sh, Ch va ng bilan bog‘liq grafik, metodik va texnologik jihatlari chuqur tahlil qilindi. Masalaning nafaqat tilshunoslik, balki ta’lim, nashriyot, elektron qidiruv, ma’lumotlar bazasi, kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellekt nuqtayi nazaridan ham ahamiyati ochib berildi. Shu bois, bugungi alifbo islohotiga munosabat bildirayotganda hissiyotdan ko‘ra ilmiy dalilga, odatdan ko‘ra kelajak ehtiyojiga, subyektiv qarashdan ko‘ra umumiy milliy manfaatga tayanishimiz kerak. Albatta, har bir harf ustida bahslashish mumkin. Har bir grafik yechimni muhokama qilish, takliflar bildirish mumkin. Ilmiy munozara bundan keyin ham davom etishi tabiiy. Chunki ilmiy fikr bahs va dalil orqali takomillashadi. Ammo asosiy maqsad bitta bo‘lishi kerak: o‘zbek tilining fonetik tabiatini aniq aks ettiradigan, ta’lim uchun qulay, imlo jihatidan izchil, raqamli texnologiyalar bilan uyg‘un va kelajak avlod uchun xizmat qiladigan yozuv tizimini yaratish. Shu nuqtayi nazardan, alifboni takomillashtirishni oddiy grafik o‘zgarishlar majmui sifatida emas, balki o‘zbek tilining zamonaviy taraqqiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholash lozim. Chunki alifbo shunchaki harflar to‘plami emas. U millatning tafakkurini ifodalash, ilm-fanini rivojlantirish, madaniy merosini saqlash, ta’lim tizimini takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalar bilan muloqot qilish imkonini beradigan vositadir. Alifbo kechagi kunning merosi bo‘lishi mumkin. Ammo u, eng avvalo, ertangi kunning poydevori bo‘lishi kerak. Bugun biz alifboni o‘zimiz emas, hali maktabga bormagan bolalarimiz, hali yaratilmagan elektron lug‘atlar, hali ishlab chiqilmagan dasturlar, hali shakllanmagan raqamli platformalar va kelajak avlod uchun takomillashtirmoqdamiz. Shuning uchun alifbo islohoti alohida harflar haqidagi bahs emas. Bu o‘zbek tilining raqamli asrdagi taqdiri, uning ilmiy salohiyati, ta’limdagi qulayligi va kelajak avlod oldidagi mas’uliyatimiz haqidagi masaladir. Tilga muhabbat faqat mavjud holatni saqlab qolishdan iborat emas. Tilga chin muhabbat uning tabiiy imkoniyatlarini chuqur anglash, uni zamon talablari bilan uyg‘un rivojlantirish va kelajak avlodga yanada mukammal holda yetkazish mas’uliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Ilmiy izlanishlar davomida amaldagi lotin alifbosining qator jihatlari alohida tahlil qilindi. Ayniqsa, O‘, G‘, Sh, Ch va ng ning grafik ifodasi bilan bog‘liq masalalar ko‘p yillik muhokamalar markazida bo‘ldi. Avvalo, O‘ va G‘ harflari masalasiga e’tibor qarataylik.

1929-yilda qabul qilingan lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida ham o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini aniqroq ifodalash maqsadida maxsus grafik belgilar qo‘llangan. Xususan, Ş ş harfi “sh” tovushini ifodalash uchun ishlatilgan. Demak, bugungi kunda muhokama qilinayotgan ayrim grafik yechimlar o‘zbek yozuvi tarixida mutlaqo begona hodisa emas.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946.
29323 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60